



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 24 (1623), 2026-yil 5-fevral, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON VA IORDANIYA O‘RTASIDA IKKI TOMONLAMA ALOQALAR FAOLLASHGANI QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Senati Raisi Faysal Aqif Misqal al-Fayoz boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynning samimiy salomi va tilaklarini yetkazdi.

O‘tgan yili Samarqandda oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Iordaniya keng qamrovli sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Ikki tomonlama aloqalar va almashinuvlar faol tus olgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo hajmi va qo‘shma korxonalar soni ortib bormoqda.

Parlamentlarda tashkil etilgan “do‘stlik guruhlari” ishini “yo‘l xaritasi” asosida faollashtirish, ularning davlat rahbarlari o‘rtasida erishilgan kelishuvlarning samarali amalga oshirilishini ta‘minlashdagi rolini kuchaytirish muhimligi ta‘kidlandi.

Savdo, sanoat kooperatsiyasi, turizm va madaniy-gumanitar sohalaridagi o‘zaro hamkorlikni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Xususan, joriy yilda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan Hukumatlararo komissiyaing birinchi yig‘ilishi va yetakchi kompaniyalar biznes forumini natijador qilib o‘tkazish zarurligi ta‘kidlandi.

Shuningdek, dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan fikr almashildi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN POKISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharifning taklifiga binoan 5-6-fevral kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Dasturga muvofiq, Islomobodda Pokiston Prezidenti Asif Ali Zardoriy, Bosh vazir Shahboz Sharif, Mudofaa kuchlari Oliy Bosh qo‘mondoni — Qurolli Kuchlarning quruqlikdagi qo‘shinlar qo‘mondoni, feldmarshal Asim Munir bilan muzokaralar hamda Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig‘ilishini o‘tkazish rejalashtirilgan.

O‘zbekiston bilan Pokiston o‘rtasidagi strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish masalalari oliy darajadagi muloqotlar kun tartibining markazida bo‘ladi.

Siyosiy muloqotni kengaytirish, ikki mamlakat hukumatlari, parlamentlari, ishbiarmon doiralari hamda hududlari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashning

O‘ZA

FARG‘ONA VILOYATIDA AMALGA OSHIRILGAN TIZIMLI ISLOHOTLAR NATIJALARI TAHLIL QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Yig‘ilish avvalida so‘nggi yillarda Farg‘ona viloyatida amalga oshirilgan tizimli islohotlarning natijalari tahlil qilindi. Yer va qazilma boyliklari cheklangan bo‘lishiga qaramasdan, hududda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar va axborot texnologiyalari sohalarida barqaror o‘rta ta‘minlandi.

Jumladan, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi 2017-yilda 7 million so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib, 26,6 million so‘mga yetdi yoki 3,8 barobar o‘tdi. Bu iqtisodiy faollik va aholi daromadlari sezilarli oshganini ko‘rsatadi.

Bandlik va ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ham ijobiy sur‘at qayd etildi. O‘tgan yilda 519 ming nafar aholining bandligi ta‘minlanib, ularning daromadlari oshirildi va 53 ming oila kambag‘allik reyestridan chiqarildi. Endilikda 2026-yil yakuniga qadar ishsizlikni 3 foizga,

kambag‘allikni esa 2,7 foizga kamaytirish ko‘zda tutilmoqda. Investitsiya va tashqi savdo sohasida ham sezilarli o‘rta ta‘minlandi. Viloyatda 26 ta yirik, 357 ta o‘rta va kichik investitsiya loyihalari ishga tushirilib, salkam 3 milliard dollar xorijiy investitsiya o‘zlashtirildi. Ekspert hajmi izchil oshdi, eksportchi korxonalarning soni kengaydi.

Qishloq xo‘jaligida o‘tgan yili 94,3 ming gektar maydonda 816,7 ming tonna g‘alla yetishtirilib, o‘rtacha hosildorlik 86,6 sentnerni tashkil etdi. Paxtachilikda 72 ming gektarda 324 ming tonna hosil olindi. Meva-sabzavot eksporti 403 million dollarga yetdi. Tomorqachilik va ixcham issiqxonalar orqali minglab xonadonlar barqaror qo‘shimcha daromad manbaiga ega bo‘ldi.

Yig‘ilishda Farg‘ona viloyatini rivojlantirishning ustuvor vazifalari belgilab olindi.

Qayd etilganidek, viloyatda investitsiya va eksport hajmlarini izchil oshirish, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish masalalariga tizimli hamda manzilli yondashish talab etiladi. Shu maqsadda Farg‘ona viloyati uchun umumiy qiymati 8,2 milliard dollar bo‘lgan yangi yirik loyihalar paketi shakllantirildi.

Joriy yilning o‘zida umumiy qiymati 4,2 milliard dollar bo‘lgan loyihalarni ishga tushirish rejalashtirilgan. Ushbu loyihalarning 2,7 milliard dollari sanoat, 210 million dollari qishloq xo‘jaligi, 1,2 milliard dollari servis va turizm sohalariga to‘g‘ri keladi.

Shu bilan birga, o‘tgan yillarda sanoat maqsadlari uchun ajratilgan 2 ming 115 gektar yer maydonining 40 foizi haligacha auksionga chiqarilmagani qayd etildi. Qo‘shimcha yer ajratishdan oldin mavjud bo‘sh yerlar infratuzilmasini yaxshilash va ularni tadbirkorlarga taklif etish orqali

investitsiya loyihalarini joylashtirish samaradorligini oshirish zarurligi ta‘kidlandi.

Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha aniq maqsadli ko‘rsatkichlar belgilandi. Joriy yilda jami 595 ming nafar, shundan 98 ming doimiy ish o‘rni yaratish, 423 ming aholini daromadli qilish hamda 74 ming ish o‘rmini “soya”dan chiqarish rejalashtirilgan.

Buvayda, Uchko‘prik, Quva, O‘zbekiston, Yozyovon tumanlari hamda Marg‘ilon, Farg‘ona, Qo‘qon va Quvasoy shaharlarini ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududlarga aylantirish vazifasi qo‘yildi. Shu maqsadda 7 ta tuman va 132 ta “og‘ir” mahallada infratuzilmani yaxshilash orqali ishsizlik va kambag‘allikni ikki karra qisqartirish uchun 800 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratiladi. Shuningdek, banklar tomonidan “Mahalla loyihasi” dasturi doirasida 1,4 trillion so‘mlik kredit resurslari yo‘natiladi.

▶ Davomi 2-beta

MAKTABGACHA TA‘LIM VA TARBIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI BOSQICH

Prezident Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta‘lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Maktabgacha ta‘lim bolaning intellektual, ijtimoiy va ma‘naviy rivojlanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Shu bois, so‘nggi yillarda ushbu sohada qamrovni kengaytirish, ta‘lim sifatini oshirish va xususiy sektor ishtirokini rag‘batlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirildi. Natijada mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim bilan qamrov 78 foizga yetdi.

Shu bilan birga, qamrovni 80 foizga yetkazish uchun yangi bog‘cha o‘rinlarini yaratish talab etiladi, 39 ta tuman va shaharda esa bog‘cha qamrovi 70 foizdan past darajada qolmoqda. Shuningdek, davlat bog‘chalarida pedagoglarning 61 foizi, nodavlat bog‘chalarda esa 76 foizi o‘rta maxsus ma‘lumotga egaligi kadrlar salohiyatini yanada oshirish dolzarb masala ekanini ko‘rsatmoqda.

Shu munosabat bilan taqdimotda maktabgacha ta‘lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Jumladan, bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarining ta‘lim dasturi majburiy umumiy o‘rta ta‘limning dastlabki bosqichi sifatida joriy etiladi. Bunda bolalarni maktab ta‘limiga puxta tayyorlash, ta‘limda uzluksizlikni ta‘minlash asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

Maktabgacha ta‘lim tizimida o‘yinga asoslangan ta‘lim modeli joriy etilib, bolaning tabiiy qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta‘lim-tarbiya jarayoni tashkil qilinadi. Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida o‘quv muhiti yangilanadi.

Shuningdek, “Yangi avlod” maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarmog‘ini shakllantirish rejalashtirilgan. 2026-2028-yillarda har bir hududda 120 o‘rinli “Yangi avlod” davlat bog‘chalari hamda ularning tarkibida Bolalarni rivojlantirish innovatsion markazlari tashkil etiladi. Mazkur bog‘chalarda qo‘shimcha rahbar hamda tarbiyachi-yo‘riqchi shtatlari joriy qilinib, rahbar va pedagog xodimlarga tarif stavkasiga nisbatan 20 foiz miqdorida har oylik ustama to‘lanadi.

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi nodavlat ta‘lim tashkilotlariga ham bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarini tashkil etishga ruxsat beriladi. Bu orqali ta‘lim xizmatlari bozorida sog‘lom raqobatni kengaytirish va qamrovni oshirish maqsad qilingan.

Kadrlar tayyorlash masalalariga ham alohida e‘tibor qaratildi. 2026-2027 o‘quv yilidan boshlab pedagogika oliy ta‘lim tashkilotlarida maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha ta‘lim dasturlari xalqaro ilg‘or tajribalarga mos ravishda takomillashtiriladi. Shu bilan birga, amalda ishlab kelayotgan o‘rta maxsus ma‘lumotli pedagog kadrlar uchun dual ta‘lim (“5+1”) asosida bakalavrlar tayyorlash tizimi joriy etiladi.

2027-2028 o‘quv yilidan boshlab maktabga tayyorlov guruhlarida ta‘lim-tarbiya olgan bolalarga davlat namunasidagi elektron sertifikat berilishi, mazkur ma‘lumotlar umumiy o‘rta ta‘lim to‘g‘risidagi shahodatnomada qayd etilishi ko‘zda tutilmoqda.

▶ Davomi 2-beta

MARKAZIY VA JANUBIY OSIYONING O‘ZARO HAMKORLIGINI YANADA MUSTAHKAMLAGAN FAOL MULOQOTLAR

Shu yilning 5-6-fevral kunlari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Pokistonga davlat tashrifi bo‘lib o‘tadi.



Ushbu tashrif so‘nggi yillarda O‘zbekiston — Pokiston muloqoti faollashganining mantiqiy davomi va ayni paytda O‘zbekistonning Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan tashqi siyosiy strategiyasini amalga oshirishda muhim bosqich sifatida baholanmoqda.

Tashrif mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlikning yangi arxitekturasini shakllanayotgan, Markaziy va Janubiy Osiyo umumiy iqtisodiy manfaatlar, tarixiy va sivilizatsion ildizlar bilan birlashgan bir-birini to‘ldiruvchi mintaqalar sifatida tobora ko‘proq idrok etilayotgan sharoitda o‘tmoqda.

Pokiston O‘zbekiston mustaqilligini birinchiildan bo‘lib 1991-yil 20-dekabrda tan oldi. 1992-yil 10-mayda diplomatik munosabatlarining o‘rnatilishi ikki tomonlama hamkorlikning institutsional asosini yaratdi. Biroq siyosiy muloqot tizimli va strategik xususiyat kasb etgan so‘nggi yillarda munosabatlar rivojida sifat jihatidan yangi bosqich boshlandi.

2021-yil iyul oyida Strategik sheriklik o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiyaing imzolanishi muhim bosqich bo‘ldi. Unda tomonlarning keng ko‘lamli yo‘nalishlarda hamkorlikni chuqurlashtirishdan o‘zaro manfaatdorligi mustahkamlandi.

2022-yil mart oyida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Pokistonga tashrifi mintaqaviy rivojlanish, Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish masalalarida Toshkent va

Islomobodning strategik yondashuvlari bir-biriga mos kelishini tasdiqladi.

Ikki davlat rahbarlarining ko‘p tomonlama forumlar doirasidagi muntazam muloqotlari alohida ahamiyat kasb etdi. 2022-yil sentabr oyida SHHTning Samarqand sammiti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralarini bo‘yicha kengash, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasidagi uchrashuvlar, global iqlim va iqtisodiy sammitlar ishonchli hamda pragmatik muloqotni shakllantirishga xizmat qildi.

Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharifning 2025-yil fevral oyida O‘zbekistonga rasmiy tashrifi alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning yakunida Qo‘shma deklaratsiya va Oliy darajadagi Strategik sheriklik kengashini tuzish to‘g‘risidagi bayonnomam imzolandi. Ushbu mexanizmning yaratilishi O‘zbekiston — Pokiston munosabatlariga barqaror institutsional asos berdi hamda ikki tomonlama tashabbuslarni tizimli muvofiqlashtirish va erishilgan kelishuvlar ijrosini nazorat qilish imkoniyatlarini ochdi.

Oliy darajadagi siyosiy muloqot, avvalo, tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi aloqalar O‘zbekiston — Pokiston munosabatlari tizimida alohida o‘rin tutadi. Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi muntazam siyosiy maslahatlashuvlar tomonlarning mintaqaviy va xalqaro kun tartibidagi asosiy masalalar, jumladan, xavfsizlik, barqaror rivojlanish va ko‘p tomonlama institutlarni isloh qilish bo‘yicha yondashuvlarini sinxronlashtirish imkonini beradi.

▶ Davomi 2-beta

2026-yil 5-fevral, 24-son

FARG‘ONA VILOYATIDA AMALGA OSHIRILGAN TIZIMLI ISLOHOTLAR NATIJALARI TAHLIL QILINDI

Boshlanishi 1-betda

Qishloq xo’jaligida meva-sabzavot mahsulotlarini xom holda emas, yuqori qo’shilgan qiymatga ega tayyor mahsulot sifatida sotish orqali eksport hajmini 510 million dollarga yetkazish vazifasi belgilandi. Shu bois, Farg’ona va Quvasoy shaharlarida xitoylik investorlar ishtirokida umumiy qiymati 175 million dollar bo’lgan agrologistika markazlari barpo etiladi.

O’zbekiston, Beshariq va Oltiariq tumanlarida chorvachilik, sutni qayta ishlash va naslli jo’ja yetishtirish yo’nalishlarida umumiy qiymati 21 million dollar bo’lgan 4 ta loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan.

Ijtimoiy infratuzilmani aholining o’sishiga mos ravishda rivojlantirish zarurligi ta’kidlandi. Joriy yilda 33 ta maktab qurilishi

va rekonstruksiysiyasi uchun 343 milliard so’m ajratilmoqda. Hudud rahbarlariga qo’shimcha imkoniyatlarni ishga solish va xususiy sektorni jalb qilish orqali infratuzilmani yaxshilash vazifasi qo’yildi.

Turizm salohiyatini kengaytirish maqsadida So’x tumanida Ugam va Miraki tajribasi asosida turizm majmualari tashkil etiladi, Farg’ona tumanida yirik turistik-rekreatsioon zona barpo qilinadi. Qo’qon shahrida yangi turizm maskanlari barpo etilib, madaniy meros obyektlari bo’ylab sayohat marshrutlari yo’lga qo’yiladi.

Shuningdek, Qo’qon shahridagi 17 ta davlat idorasini “Yangi O’zbekiston” massiviga ko’chirish orqali aholiga barcha davlat xizmatlarini bir joyda ko’rsatadigan qulay va samarali tizimni shakllantirish vazifasi belgilandi.

Axborot texnologiyalari sohasida Farg’ona viloyati iqtisodiyotining muhim drayveri

sifatida IT yo’nalishini jadal rivojlantirish rejalashtirilgan.

Hozirda viloyatda 139 ta IT-park rezidenti faoliyat yuritmoqda. Joriy yilda axborot texnologiyalari xizmatlarining hajmini 3,5 trillion so’mga, eksportni esa 30 million dollarga yetkazish maqsad qilingan. Farg’ona shahrida yangi IT-park va majmuasi, Marg’ilon shahrida xalqaro IT oliygohi, shuningdek, Farg’ona shahrida “Muhammad al-Xorazmiy vorislari” loyihasini ishga tushirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari yig’ilish yakunida har bir loyihani aholi bandligi va turmush darajasini oshirish bilan uzviy bog’lab amalga oshirish, belgilangan vazifalar ijrosi uchun mutasaddilarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish bo’yicha aniq topshiriqlar berdi.

O’ZA.

MAKTABGACHA TA’LIM VA TARBIIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI BOSQICH

Boshlanishi 1-betda

Taqdimotda maktabgacha ta’lim sohasida xususiy sektorni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan yangi imtiyozlar ham muhokama qilindi.

Maktabgacha ta’lim sohasida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida qamrov darajasi 80 foizdan past bo’lgan tuman va shaharlarda (Toshkent shahri bundan mustasno) tadbirkorlar uchun qator qo’llab-quvvatlash choralari joriy etiladi.

Jumladan, maktab va bog’chalar hududidagi bo’sh yer maydonlarida davlat-xususiy sheriklik asosida bog’chalar tashkil etilganda, ijara to’lovlari 30

yilgacha undirilmaydi. Shuningdek, har bir tarbiyalanuvchi uchun davlat bog’chalarida bir bolaga to’g’ri keladigan xarajatning 50 foizi miqdorida subsidiya ajratiladi. Ushbu tartib 2024-yildan tashkil etilgan nodavlat bog’chalariga ham tatbiq etiladi.

Qamrov darajasi past hududlarda bog’cha va maktabdan tashqari joylarda quvvatli kamida 150 o’rinli nodavlat bog’chalar tashkil etilsa, 7 yilgacha muddatga 5 milliard so’mgacha imtiyozli kreditlar ajratiladi. Shu bilan birga, tarbiyachilarga oylik ish haqi to’lash xarajatlari davlat bog’chalarida belgilangan me’yorlar asosida uch yil davomida qoplab beriladi. Har 30 nafar bolaga bir nafar tarbiyachi sh’tati hisoblanadi.

Mazkur imtiyozlar yangi ko’p kvartirali uylarning birinchi qavatida tashkil etiladigan xususiy bog’chalarga ham tatbiq etiladi.

Bundan tashqari, 2030-yil 1-yanvargacha qadar quvvati 150 o’rindan kam bo’lmagan nodavlat bog’chalar tashkil etgan tadbirkorlar uchun ijtimoiy soliq stavkasi bo’yicha yengilliklar beriladi.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan takliflarni har tomonlama puxta ishlash chiqish, ularni bosqichma-bosqich joriy etish hamda maktabgacha ta’lim sifatini oshirish orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratish muhimligini ta’kidladi. Mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

O’ZA

Ahmad FARUQ: “BIZ IKKI DAVLAT O’RTASIDAGI STRATEGIK ALOQALARNING “OLTIN DAVRI”GA GUVOH BO’LMOQDAMIZ”

O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Pokistonga davlat tashrifi arafasida Pokistonning O’zbekistondagi elchisi Ahmad Faruq “Dunyo” AA muxbiriga intervyu berib, ushbu tashrifning ahamiyati, kutilayotgan kelishuvlar va O’zbekiston — Pokiston munosabatlarining istiqbollari haqidagi fikrlarini bayon etdi.

— Elchi janoblari, O’zbekiston va Pokiston o’rtasidagi strategik sheriklik aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. Aytinch, 2025-yil ikki tomonlama hamkorlikda qaysi jihatlar bilan tarixiy ahamiyat kasb etdi?

— Bismillahir rohmamir rohim. Sizga ham taklif uchun minnatdorchilik bildiraman. Ta’kidlab o’tganingizdek, Pokiston — O’zbekiston munosabatlari yillar davomida, ayniqsa, so’nggi to’rt-besh yil ichida jadal rivojlanib, ijobiy yo’nalishda keskin o’sdi. Ikki tomon o’rtasida oliy darajadagi aloqalar yo’lga qo’yildi, davlat rahbarlarining o’zaro tashriflari amalga oshirildi, ishchi darajadagi uchrashuvlar ko’paydi, savdo hajmi o’sish sur’atlarida samimiyat bilan faollashdi. Ya’ni Pokiston — O’zbekiston munosabatlari har tomonlama rivojlanish kuzatildi.

2025-yilga keladigan bo’lsak, eng muhim voqea Pokiston Bosh vazirining O’zbekistonga amalga oshirgan tarixiy tashrifi bo’ldi. Ushbu tashrif davomida Prezident va Bosh vazir o’rtasida samimiyat bilan o’zaro ishonch muhitini ko’rish mumkin edi. Bu tashrif ikki tomonlama hamkorlikning turli yo’nalishlarini muhokama qilish, savdo, tijorat, investitsiya, xalqlar o’rtasidagi aloqalar, turizm kabi sohalarida hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash imkonini berdi. Rahbarlar qator aniq maqsadlarni belgilab oldi. Eng muhim maqsadlardan biri yaqin yillarda o’zaro savdo hajmini 2 milliard dollarga yetkazishdir.

Tashrif yakunlangach, Pokiston va O’zbekiston tomonlari yetakchilar kelishuvlarini amalga oshirish uchun qo’shma harakat rejasini — “yo’l xaritasi”ni ishlab chiqdi. Ushbu hujjatlar to’plami qariyb



10-12 ta kelishuvdan iborat bo’lib, ularni hayotga tatbiq etish mexanizmlari belgilab olindi.

“Yo’l xaritasi” bizga aniq va amaliy natijalarga erishish imkonini beradi. Har bir soha bo’yicha jami 40 ta banddan iborat rejani izchil amalga oshirmoqdamiz.

O’zaro savdo hajmi 450 million dollarga yetdi. Mahallan, bir necha yil avval bu ko’rsatkich 100 million dollardan kam edi. Bu esa o’sish sur’atlari qanchalik tez bo’lganini yaqqol ko’rsatadi.

Xalqlar o’rtasidagi aloqalar borasida ham sezilarli o’sish kuzatildi. 2024-yil fevral oyida birinchi aviaqatnov yo’lga qo’yildi, noyabr oyiga kelib, parvozlar soni bittadan ikkitaiga ortdi. Hozir esa haftasiga to’rtta reys amalga oshirilmoqda. Kelgusida yana ikki-uchta yangi yo’nalish yo’lga qo’yilishi rejalashtirilgan.

Mintaqaviy transport aloqalarini rivojlantirish doirasida Pokiston, O’zbekiston va Afg’oniston Transafg’on temir yo’li bo’yicha texnik-iqtisodiy asoslash ishlarini o’tkazish yuzasidan kelishuvni imzoladi.

Bular faqat ayrim misollar, xolos. Asosiy aytmoqchi bo’lgan fikrim shuki, 2025-yil juda samarali bo’ldi. U avvalgisidan ham yaxshiroq natijalar berdi. Inshaalloh, 2026-yil bundan ham barakali va muvaffaqiyatli bo’lishiga umid qilamiz.

— So’nggi yillarda davlatlarimiz o’rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar qaysi sohalarida jadal rivojlanmoqda?

— Bu borada aytishim mumkinki, savdo hamkorligining asosiy yo’nalishlari farmatsevtika, qishloq xo’jaligi va to’qimachilik sohalaridir.

Avvalo, oziq-ovqat va qishloq xo’jaligi masalasiga to’xtalsak, ushbu yo’nalishda Pokistonning O’zbekistonga asosiy eksport mahsulotlari qatoriga go’sht, guruch, kartoshka va boshqa qishloq xo’jaligi mahsulotlari kiradi. O’zbekiston tomonidan esa Pokistonga quruq mevalar, sabzavotlar va shu kabi ko’plab boshqa mahsulotlar eksport qilinmoqda. Demak, qishloq xo’jaligi ikki tomonlama savdoda yetakchi o’rinlardan birini egallaydi.

Keyingi muhim yo’nalish — farmatsevtika sohasi. Pokistonda farmatsevtika sanoati juda yaxshi rivojlangan. Ko’plab Pokiston kompaniyalari O’zbekistonga investitsiya kiritib, dori vositalarini shu yerning o’zida ishlab chiqarishga qiziqish bildirmoqda. Bu ishlab chiqarish nafaqat O’zbekiston bozori, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi mumkin.

Yana bir muhim soha — to’qimachilik sanoati. So’nggi 75-80 yil davomida Pokistonda kuchli va barqaror to’qimachilik tarmog’i shakllangan. Aynan shu salohiyat

ikki davlat rahbarlari uchrashuvi chog’ida ham muhim yo’nalish sifatida muhokama qilingan edi.

Albatta, hamkorlik qilinishi mumkin bo’lgan boshqa sohalar ham mavjud, biroq aynan qishloq xo’jaligi, farmatsevtika va to’qimachilik yo’nalishlari bugungi kunda eng ustuvor yo’nalishlar hisoblanadi.

— Transport-logistika va mintaqaviy bog’liqlik, jumladan, Transafg’on yo’lagi loyihasi doirasidagi hamkorlikni qanday strategik ahamiyatga ega deb bilasiz?

— Pokiston qariyb 240 million aholiga ega yirik davlat bo’lib, hududi ham katta. Mamlakatda Karachi shahrida joylashgan rivojlangan va to’liq faoliyat yuritayotgan uchta dengiz porti, xususan, strategik muhim bo’lgan Gvadar porti mavjud. Pokiston portlari Markaziy Osiyo davlatlari uchun dengizga chiqishning eng yaqin va iqtisodiy jihatdan eng maqbul yo’lini taqdim etadi. Eng qisqa yo’l odatda eng tejamkor va eng ishonchli yo’l. Shu bois, mazkur yo’nalish mavjud eng samarali transport yo’laklaridan biri hisoblanadi.

Endi O’zbekistonga to’xtalsak. O’zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo’lib, mintqa aholisining qariyb yarmi shu davlat hissasiga to’g’ri keladi. Mamlakatda barqaror boshqaruv tizimi shakllangan va puxta o’ylangan iqtisodiy siyosat yuritilmoqda. Pokiston taklif etayotgan imkoniyatlar va O’zbekistonning mintaqaviy salohiyati birlashganda, bu ikki davlatni Arab dengizi bilan Markaziy Osiyoni bog’lovchi tabiiy hamkorlarga aylantiradi. O’zbekiston esa ushbu jarayonda mintaqaviy logistika markazi vazifasini bajarishi mumkin.

Siz tilga olgan Transafg’on temir yo’li loyihasiga kelsak, hozirgi sharoitda Pokistonning Karachi portidan O’zbekistonga yuk yetkazish o’rtacha 10-12 kun vaqt oladi. Mazkur temir yo’li loyihasi amalga oshirilgach esa bu muddat 3-4 kungacha qisqarishi mumkin. Bu esa loyiha qanday ulkan salohiyatga ega ekanini yaqqol ko’rsatadi. Shu sababli mazkur tashabbus davlat rahbari tomonidan “asr loyihasi” va “kelajak avlodlar uchun loyiha” deya ta’riflangan.

Bu, shubhasiz, strategik ahamiyatga ega bo’lgan muhim infratuzilma loyihasidir va ayni paytda ikki tomon ushbu yo’nalishda faol ish olib bormoqda. Avval ta’kidlaganimdek, o’tgan yili Pokiston, O’zbekiston hamda Afg’oniston ushbu temir yo’li loyihasining

texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish bo’yicha kelishuvni imzolagan edi.

— Madaniy-gumanitar va turizm sohalaridagi hamkorlik xalqlarimiz o’rtasidagi o’zaro yaqinlikni yanada mustahkamlashda qanday rol o’ynamoqda?

— Madaniy aloqalar haqida gapirganda, biz yangi bir narsani yaratish haqida emas, balki asrlar davomida shakllangan rishtalarni yana jonlantirish haqida so’z yuritamiz. Masalan, urdu va o’zbek tillarida 4-5 mingga yaqin umumiy so’zlar mavjud. Oila qadriyatlar, milliy taomlar va turmush tarzida ham o’xshash jihatlar juda ko’p. Shuncha umumiylik bor ekan, turizm va xalqlar o’rtasidagi almashinuv uchun ulkan imkoniyatlar mavjudligi tabiiy.

Masalan, O’zbekistonda ziyorat turizmi nuqtayi nazaridan Samarqand va Buxoro shaharlariga tashrif buyurish katta qiziqish uyg’otadi. Xuddi, shuningdek, Pokiston ham boy tarixiy merosga ega. Bu tarix taxminan 7 ming yil avvalgi Mehrgarh manzilgohidan boshlanib, Mohenjodaro sivilizatsiyasi, Takht-i-Bahi kabi buddaviy monastirlar va boshqa ko’plab tarixiy yodgorliklarni o’z ichiga oladi. Shu bois, Pokiston diniy turizm, tarixiy turizm hamda geologik turizm yo’nalishlarida katta salohiyatga ega. Demak, har ikki davlat ham bir-biriga taklif qila oladigan boy meros va imkoniyatlarga ega.

Oddiy bir misol: avval aytganimdek, 2024-yilda bitta aviaqatnov bilan boshlangan yo’nalishlar hozir to’rttaga yetdi. Hatto reyslarga chipta topish ham oson emas, bu esa talab qanchalik yuqori ekanini ko’rsatadi. Demak, erishilgan natijalar muhim, biroq hali amalga oshirilishi lozim bo’lgan ishlar bundan ham ko’proq.

O’tgan yili Bosh vazir tashrifi davomida ikki tomon xalqlar o’rtasidagi aloqalarni kengaytirish, qo’shma hujjatli filmlar yaratish, keyinchalik sahna asarlari va teleseriallar suratga olish, yoshlar o’rtasida hamkorlik va almashinuv dasturlarini rivojlantirish masalalarini ham muhokama qildi. Mazkur yo’nalishda hali katta ishlar amalga oshirilishi kutilmoqda.

— Sizningcha, 2026-yil va undan keyingi davrda O’zbekiston — Pokiston strategik sherikligini yanada chuqurlashtirish uchun qaysi yo’nalishlar ustuvor bo’lishi kerak?

— Menimcha, barcha yo’nalishlar — savdo-iqtisodiy hamkorlik, siyosiy aloqalar, xalqlar o’rtasidagi munosabatlar va turizm —

va ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga qo’shilgan qiymatni oshirish uchunchi mamlakatlar bozorlariga chiqishning samarali mexanizmi sifatida qaralamoqda.

Transp-logistika hamkorligini rivojlantirish strategik ahamiyatga ega. O’zbekiston Pokistonning Karachi va Gvadar portlariga chiqishga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu esa tashqi savdo yo’nalishlarini diversifikatsiya qilish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

O’zbekiston — Afg’oniston — Pokiston uch tomonlama formatida amalga oshirilayotgan Transafg’on temir yo’li hamkorlikning muhim loyihasidir. 2025-yil iyul oyida Hadli bittasining imzolaniishi yuk tashish muddatlari va xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish, Markaziy va Janubiy Osiyoning iqtisodiy o’zaro bog’liqligini mustahkamlashga oid loyihani amalga oshirish yo’lidagi muhim qadam bo’ldi.

O’zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti va unda kechayotgan transformatsiya jarayonlari Pokiston hamjamiyati va ekspertlar doiralarda katta qiziqish uyg’otmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlar siyosati pokistonlik tahlilchilar tomonidan institutsional o’zgarishlar, iqtisodiy liberalashtirish va faol tashqi siyosatni o’zida mujassam etgan muhim va ko’p jihatdan noyob modernizatsiya tajribasi sifatida baholalanmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Pokistonga tashrifi strategik sheriklikni rivojlantirish, iqtisodiy va transport-logistika hamkorligini kengaytirish, gumanitar aloqalarni chuqurlashtirishga yangi sur’at bag’ishlaydi. Bu, shubhasiz, Markaziy va Janubiy Osiyoning barqaror o’zaro bog’liqligini shakllantirish, ikki mamlakatning mintaqaviy va global jarayonlarning mas’ul ishtirokchisi sifatidagi rolini mustahkamlashdan tomonlar o’zaro manfaatdor ekanini tasdiqlaydi.

“Dunyo” AA

bir-biri bilan uzviy bog’liq holda, yonma-yon va hamohang rivojlanishi kerak.

Masalan, biznes sohasini olaylik. Ham Pokiston, ham O’zbekiston uchun tadbirkorlik aloqalarini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. O’tgan yili Pokiston Bosh vaziri tashrifi doirasida biznes-forum tashkil etilgan edi. Endilikda esa O’zbekiston Prezidenti Pokistonga tashrif buyurishi kutilayotgan bir paytda yana shunday biznes-forum o’tkazilishi rejalashtirilmoqda.

Umumiy aytganda, barcha sohalar bir butun holda, tizimli va muvozanatli tarzda rivojlantirilishi lozim. Aynan shunday yondashuv o’zaro munosabatlarning har tomonlama va izchil taraqqiy etishini ta’minlaydi.

— Elchi janoblari, yaqinda Siz Toshkentda barpo etilgan, mintaqamizning ulkan ilmiy va ma’naviy xazinasini bo’lishi kutilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazida bo’ldingiz. Ma’lumki, O’zbekiston va Pokistonni umumiy islomiy qadriyatlar, buyuk allomalarimizning ilmiy merosi va asriy madaniy rishtalar bog’lab turadi. Markazga tashrifingiz sizda qanday taassurot qoldirdi?

— Avvalo, shuni ta’kidlashni istardimki, O’zbekiston hukumati juda ulkan va tahsinga loyiq ishni amalga oshirgan. Islom sivilizatsiyasi markazida ko’rayotganlarimiz nafaqat bir mamlakatning, balki butun musulmon olamining umumiy merosidir.

Men tilga olgan buyuk allomalar merosi, qadimiy qo’lyozmalarning asrab-avaylanishi — bularning hammasi barchamizga tegishli bo’lgan behabo boylikdirdi. Qur’on qo’lyozmalari va boshqa noyob manbalar ham ana shu umumiy merosning ajralmas qismidir. Ayni paytda Usmon mush’afining ham markazda saqlanayotgani ushbu maskanning tarixiy va ma’naviy ahamiyatini yanada oshiradi.

Bularni nafaqat musulmonlar balki butun insoniyat uchun umumiy madaniy meros deb atash mumkin. Shaxsan men ham musulmon sifatida bu meros bilan chuqur bog’liqlikni his qilaman va o’zimni uning bir qismi deb bilaman.

Alohida e’tiborga loyiq jihat shundaki, O’zbekiston ushbu markazda so’nggi texnologiyalarni, zamonaviy dizayn va taqdimot usullarini tarixiy merosni saqlash va namoyish etish bilan uyg’unlashtira olgan. Natijada tarix zamonaviy yondashuv bilan qayta jonlantirilgan. Ayniqsa, yosh avlod uchun bu juda muhim — ular bu yerga kelib, tarixni nafaqat ko’radi, balki uni his qiladi, tushunadi va qadrlaydi. Hatto biz kabi yoshi kattaroq insonlarga nisbatan ham ular buni yanada chuqurroq anglashlari mumkin.

Bu tashabbus haqiqatan tarix va zamonaviylikni birlashtirgan juda ibratli va uzoqni ko’zlagan loyiha hisoblanadi.

“Dunyo” AA

YANGI O‘ZBEKISTON



Suv va hayot

Suv kam, EHTIYOJ KO‘P

BUNDAY SHAROITDA QANDAY YO‘L TUTMOQ KERAK?

Hayot tartib-qoidalaridan iborat. Ularning ayrimlari turmush tarzi, urf-odatlar, oilada olingan tarbiya muhitida shakllansa, boshqalari ehtiyoj asosida yaratiladi. Ya’ni nimaga talab bo‘lsa, undan foydalanish mezonlari vujudga keladi. Shunisi aniqki, tartib-qoida qay holatda bo‘lmasin — zarurat. Ular hayotimizni izga solib turadi. Masalan, suvdan foydalanishni olaylik. Mazkur masalada biz o‘ziga xos tajribaga egamiz. Chunki suvni iflos va isrof qilmaslikni, avvalo, oilada o‘rganamiz. Suv masalasida nihoyatda ehtiyotkor bo‘lish lozimligini bobo-buvi, ota-onamizdan juda ko‘p eshitganmiz va shunga amal qilishga intilamiz.



Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Suv tengi yo‘q va bebaho ne‘mat. Tiriklik manbai. Turmushimiz, sog‘li‘imiz, faoliyatimiz u bilan bog‘liq. Suvning muqobili ham yo‘q, uni hech nima bilan almashib bo‘lmaydi. Sanab o‘tilgan ushbu omillar, qolaversa, hozirgi kunda dunyoda kuzatilayotgan qurg‘oqchilik, cho‘llanish, iqlim o‘zgarishi kabi holatlar suv qadriini har qachongidan oshirmoqda.

Bu xususda kuni kecha Prezidentimizning suv resurslaridan samarali foydalanishni ta‘minlash hamda suv tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish yuzasidan taqdimot bilan tanishishi chog‘ida ham alohida qayd etildi.

Chindan ham bugun suvni asrab-avaylash kechiktirib bo‘lmaydigan vazifaga aylanmoqda. Bu masala biz uchun o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Nega?

Birinchidan, O‘zbekiston geografik jihatdan dunyoning suv taqchil bo‘lgan hududlaridan biri — Markaziy Osiyoda joylashgan. Qolaversa, mintqa, shu jumladan, yurtimiz iqtisodiyoti, aholisi yil sayin o‘sib bormoqda. Oxirgi ma‘lumotlarga qaraganda, Markaziy Osiyo aholisi 2050-yilgacha 100 milliondan oshadi. Eng katta ko‘payish, tabiiyki, O‘zbekistonda bo‘ladi. Yurtimiz aholisi taxminan 50 million kishiga yetadi. Bular, o‘z navbatida, suvga ehtiyojni ham oshiradi.

Endi savol: yerimiz qurg‘oqchil, suvimiz taqchil va holat tobora yomonlashishi mumkin ekan, nima qilmoq kerak? Hozirgi tushunchamiz, amaliy ishlarimiz bilan holatni qanchalik yumshata olamiz?!

Albatta, hayot bir joyda to‘xtab turmaydi. Yozilgan va yozilmagan qoidalar asosida davom etaveradi. Lekin bugun anglab yetaypmizki, suvga endi avvalgidек munosabatda bo‘la olmaymiz. Ayni paytda atrofimizda ko‘rib, bilib turgan holat, ish tutumimiz bunga yo‘l qo‘maydi.

Ko‘pchilikning ongida o‘mashib qolgan “suv — tekin” tushunchasi o‘zgarishi shart. Boshqa iloj yo‘q. To‘g‘ri, bugun jo‘mraklar orqali xonadonimizgacha suv kirib kelmoqda. Aqrlarimiz ham suvsiz qolayotgani yo‘q. Lekin bu uni istagancha sarflash kerak degani emas. Aksincha, unga har qachongidan e‘tiborli bo‘lish taqozo etilyapti.



Tizimlashgan huquqiy asos

O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarish, undan foydalanish, sarflash va tejashga daxldor ko‘plab hujjatlar qabul qilingan. Ularning ijrosi bo‘yicha qilinayotgan ishlar ham kam emas. Jumladan, o‘tgan yili “O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindiki, bunga alohida to‘xtalib o‘tmamak bo‘lmaydi. Chunki mazkur qonun mamlakatimizda bu borada qilinayotgan ishlarining mantiqiy davomi sifatida ham, mavjud hujjatlarni bir tizimga jamlagani bilan ham ahamiyatli.

Suv kodeksi 2025-yilning 31-oktabridan kuchga kirdi.

Aytdik, iqlim o‘zgaryapti, suvga talab ortyapti. Manba kam, ehtiyoj esa ko‘p. Bunday sharoitda bu kabi hujjat o‘ta zarur. Binobarin, unda iqtisodiyot tarmoqlari va atrof-muhitning suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, infratuzilma hamda sug‘oriladigan yerlar holatini yaxshilash borasida tizimli masalalar qamrab olindi.

Mutaxassislar fikricha, bu bilan, avvalo, suv munosabatlari yo‘nalishida mamlakatimizdagi asosiy huquqiy hujjatlar tizimlashtirildi. Ya’ni “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun, Prezidentimizning 8 ta farmoni, 14 ta qarori hamda hukumatning 26 ta qarori normalari birlashtirildi. Yangi kodeks suv, suv obyektlari va suv fondi yerlaridan oqilona foydalanish

hamda muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Shuningdek, O‘zbekistonning yer usti va yer osti suv obyektlari, yurtimizda joylashgan va hududimizni kesib o‘tadigan transchegaraviy obyektlar belgilab berildi. Suv obyektlaridan yakka yoki birgalikda foydalanish mumkin. Kodeksning asosiy g‘oyasi suvning umummilliy boylik sifatida e‘tirof etilib, u davlat tomonidan muhofaza qilinishida namoyon bo‘ladi.

Kodeksda suv resurslarini boshqarishda maxsus vakolatli organlar aniq ko‘rsatildi. Suvdan foydalanish uchun ruxsatnoma berish shartlari soddalashtirildi.

Qisqa qilib aytganda, ushbu kodeks suvdan oqilona foydalanish, samarali boshqarish va muhofaza qilishni ta‘minlaydigan huquqiy shart-sharoitlar yaratadi. Davlat organlarining bir-birini takrorlovchi vakolatlari bilan bog‘liq masalalar hal qilinib, suv yetkazib beruvchilar va suvdan foydalanuvchilar mas‘uliyatini oshiradi. Shu bilan birga, u mamlakatimizning suv xavfsizligiga erishishi uchun xizmat qiladi. Suv xo‘jaligini uzoq muddatli rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratiladi. Bunda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, sohaga investitsiyalarni jalb qilish va texnologik modernizatsiya qilish rag‘batlantirildi. Xalqaro suv huquqi normalarini milliy suv qonunchiligiga singdirish hamda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini yaxshilashga xizmat qiladi.

Aniqlikka tayangan tejamkorlik



Respublikamizda suv resurslarining o‘rtacha 90 foizi qishloq xo‘jaligida, 4,5 foizi kommunal-maishiy xo‘jalik sohasida, 4,3 foizi sanoat va energetikada, 1,2 foizi baliqchilikda ishlatiladi. Global iqlim o‘zgarishi natijasida Markaziy Osiyoda so‘nggi 50-60 yil davomida muzliklar maydoni taxminan 30 foiz qisqargan.

Xo‘sh, bunga nimaning evaziga erishildi? Albatta, davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar, subsidiyalari va rag‘bat hisobiga. 2018-yildan buyon suv tejoychi texnologiyalarni joriy etganlarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Prezidentimizning 7 ta farmoni va qarori qabul qilindi. Bu hujjatlar bilan subsidiyalari ajratish yildan yilga takomillashtirildi.

Bundan tashqari, ilgari suv tejankor sug‘orish texnologiyalari uskuna va butlovchi qismlari xorijdan keltirilardi. 2019-yilda mamlakatimizda suv tejoychi texnologiyalarni, uskuna va butlovchi qismlarni ishlab chiqaruvchi bor-yo‘g‘i uchta korxona bor edi. Hozir esa ular soni 60 dan oshdi. Ishlab chiqarish mahalliyashtirilishi hisobiga yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxi gektar hisobiga 20 foiz arzonlashdi. Joylarda shu yo‘nalishdagi servis xizmati va savdo shoxobchalari paydo bo‘ldi.

Prezidentimiz o‘tgan yil 1-2-may kunlari Xorazm viloyatiga tashrif chog‘ida mahalliy fermerning nasos agregatini quyosh panellari orqali ishlatish tajribasini yuqori baholagan edi. Shundan so‘ng respublikamiz bo‘yicha fermer xo‘jaliklari hisobidagi 7500 ta nasos agregatiga ushbu tajribani joriy etish vazifasi belgilandi. Tajribaning muhimligi shundaki, suv tejoychi texnologiyadan foydalanilgan paytda quyosh paneli orqali ishlab chiqarilgan elektr energiyasi umumiy tarmoqqa uzatiladi. Ya’ni davlatga sotiladi. Shu tariqa fermerlar qo‘shimcha daromadga ega bo‘ladi.

“Xorazm tajribasi” asosida 9559 ta subyektning nasos agregatlariga quyosh panellari o‘rnatish bo‘yicha hududlar kesimida dastur ishlab chiqilgan. Buning uchun zarur mablag‘ tijorat banki tomonidan kredit tarzida ajratiladi.

Umuman olganda, yurtimizda 2023-2025-yillarda suv resurslaridan samarali foydalanish, kanallarni betonlash hamda sohada raqamli va resurs tejankor texnologiyalar joriy etish hisobiga 25 milliard kub metr suv iqtisod qilining diqqatga sazovor. Nasos stansiyalariga tejankor texnologiyalar o‘rnatilishi hisobiga esa 2024-yilda 300 million kVt/soat elektr energiyasi iqtisod qilindi. Suv xo‘jaligi tizimi oldida 2030-yilgacha sug‘oriladigan ekin maydonlarini tejankor texnologiyalar bilan to‘liq qamrab olish vazifasi turganini inobatga olsak, hali bu boradagi ishlarni izchil davom ettirish kerakligi anglashiladi.

Tejamkorlik aniqlikka tayandadi. Ya’ni qachon hisob-kitob aniq, reja puxta bo‘lsa, samaradorlik shuncha yuqori bo‘ladi. Shu ma’noda, joriy yildan e‘tiboran dalada suv hisoblagich o‘rnatgan va tejankor texnologiyalarni qo‘llayotgan fermerlar uchun soliq koeffitsiyenti kamaytirilgani, aksincha holatlarda esa oshirilishi belgilangani bu borada qo‘l keladi.

Keskin o‘zgarish qilish uchun raqamlashtirish shart

Darhaqiqat, endi ishga yangicha yondashilmasa, ko‘p narsani boy berishimiz mumkin. Ayniqsa, suv masalasida. Nega deganda, endi aqrlarimizda suv bekorga oqib yotgani yo‘q. Foydalanishda me‘yor mavjud. Shunday ekan, suv xo‘jaligi sohasida keskin o‘zgarish qilishning birdan bir yo‘li — raqamlashtirish. Bu orqali shaffoflik, aniqlik ta‘minlanadi, isrofgarchilikning oldi olinadi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasida ayni shu maqsadlar belgilab olingan. Shundan kelib chiqib, 2020-2025-yillarda 13 ming 254 ta suv ombori va irrigatsiya tizimining suv o‘lchash postlarida onlayn rejimda suv resurslarini kuzatib borish imkonini beruvchi “Aqli suv”, 10 ming 453 ta meliorativ kuzatuv qudug‘ida sizot suvlar ko‘rsatkichlari va yerlarning mineralashganlik darajasini nazorat qilish, 1749 ta nasos stansiyasida suv sarfini monitoring qilish qurilmalari o‘rnatildi. 100 ta yirik suv xo‘jaligi obyektlarining boshqaruvi avtomatlashtirildi.

Suv xo‘jaligi vazirligi huzurida Vaziyatlar markazi tashkil etildi. “Uzinfocom” korxonasi bilan hamkorlikda sohada mavjud barcha axborot tizimlari ma‘lumotlarini yig‘ish, umumlashtirish va tahlil qilish imkonini beruvchi “Raqamli suv xo‘jaligi” yagona platformasi ishlab chiqildi. Tumanlarda “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari tashkil etildi.

Respublikamizda suv resurslarining o‘rtacha 90 foizi qishloq xo‘jaligida, 4,5 foizi kommunal-maishiy xo‘jalik sohasida, 4,3 foizi sanoat va energetikada, 1,2 foizi baliqchilikda ishlatiladi.

Global iqlim o‘zgarishi natijasida Markaziy Osiyoda so‘nggi 50-60 yil davomida muzliklar maydoni taxminan 30 foiz qisqargan. Taxminlarga ko‘ra, harorat 20 darajaga ortganda muzliklar hajmi 50 foiz, 40 daraja isiganda esa 78 foiz kamayadi. Hisob-kitoblar 2050-yilgacha Sirdaryo havzasida suv resursi 5 foiz, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishini ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda 2015-yilgacha bo‘lgan davrda suvning umumiy taqchilligi 3 milliard kub metr dan ortiqni tashkil qilgan bo‘lsa, 2030-yilga borib, 7 milliard kub metrni, 2050-yilga borib esa 15 milliard kub metrni tashkil qilishi mumkin.

Mana shu raqamlardan suv biz uchun qanchalik e‘zozli ekan ko‘rinadi. Uni nechog‘liq qadrlasak, shuncha yaxshi. Bu bo‘yicha ishlar qilinayapti, amaliyot bor, natija ham yo‘q emas. Lekin suv bizga har kuni va har qachon kerak ekan, harakat ham to‘xtamasligi shart.



DARYOLARNING QURISHI

KO‘Z YOSHLARGA OLIB KELADI

XXI asrga kelib, suvsizlik yoki chuchuk suv tanqisligi dunyodagi eng global muammoga aylanib bormoqda. Bu muammo, ayniqsa, Markaziy Osiyo, Kichik Osiyo, Afrika, qo‘yingki, jahonning yarmini bezovta qilyapti. Chunki katta dengizlar va ko‘llar, daryolar sathi pasayib, qurib bormoqda.

Mamlakatimizda ham obihayot taqchilligi yil sayin sezilib, yer osti suvi kamayishi, iqlim o‘zgarishi keskin tus olaypti. Orol dengizi barchaminizning ko‘z o‘ngimizda quridi. Prognozlariga ko‘ra, 2030-yilga borib, O‘zbekistonda yiliga 7 milliard kub metr suv yetishmovchiligi kuzatiladi. Bu ayni paytda foydalanilayotgan suv hajmining 25 foiziga teng. 2050-yilga borib esa mazkur ko‘rsatkich ikki barobar oshadi, ya’ni suv taqchilligi 15 milliard kub metrga yetadi. Tabiiyki, suv resurslari taqchilligining uzluksiz o‘sib borishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Suv taqchilligi faqat bizda kuzatilayotgani yo‘q. Bugun Xitoy, Eron, Afrika mamlakatlari, hatto Yevropa davlatlarida ham chuchuk suv tanqisligi sezilmogda. Germaniyaning Reyn daryosidagi toshlarda bunday yozuv bor ekan. “Agar bu toshlar sizga ko‘rinsa, u ko‘z yoshi oqishiga olib keladi”. Chunki daryoda suv kamaysa, toshlar yuzaga chiqib qoladi. Ayni paytda Kaspiy dengizida ham suv sathi pasayib bormoqda.

Bu kabi hodisalarni ko‘rib, o‘ylab qoladi kishi. Bizdagi ahvol ham shunga o‘xshab ketmayaptimikan? Lalmikor tumanlarda artezian quduqlar kavlanmoqda. Avval 100 metrdan olingan suv endi 300 metr chuqurlikdan chiqarilmoqda. To‘g‘ri, ancha-muncha lalmi hududda bog‘lar barpo etildi, yong‘oqzorlar, pistazorlar paydo bo‘ldi. Ulardan hosil ham olinmoqda. Ammo yer osti suvini uzluksiz chiqarib olishning oqibatini ayrim mamlakatlarda misolida ko‘rib turibmiz. Endilikda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash zarur ekan, suvga talab doim kun tartibidagi eng muhim masala bo‘lib qolaveradi.



O‘zbekistondagi chuchuk suvning 80 foizi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun sarflanmoqda. Mamlakatdagi sug‘oriladigan 4 million gektar maydonga suv sarfi yuqori bo‘lgan ekinlar ekilyapti. Yana bir muammo mavjud: katta maydonlarda suvdan eskicha usullarda foydalanilmoqda. To‘g‘ri, tomchilatib, yomg‘irlatib sug‘orish usullari ham qo‘llanilyapti. Lekin o‘rta va katta yoshli fermerlarning ko‘pi tomchilatib sug‘orish mexanizmlarini yaxshi bilmaydi. Shuning uchun ular eskicha sug‘orish usulidan foydalanilarni afzal ko‘radi. Bunday holatlar vujudga kelmasligi uchun viloyatlar va tumanlarda dual ta‘lim orqali texnikaga moyil yoshlarni qisqa muddatli kurslarda o‘qitish lozim. “Agrobank” “Suvchilar maktabi”ni tashkil qilgan. Uni yanada takomillashtirish, kengaytirish zarur.

Suv taqchilligi xavfi tufayli so‘nggi yillarda hukumatimiz yaqin kelajakda kutilayotgan suv inqirozini bartaraf etish bo‘yicha faol chora-tadbirlar ko‘rmogda. Suv xo‘jaligi sohasida 2024-yil “Kanallarni betonlash bo‘yicha zarbdor yil” deb e‘lon qilindi hamda katta magistral kanallar hamda ichki kanallarni betonlash ishlari boshlanib ketdi. Olimlarning hisob-kitobiga ko‘ra, 550 kilometrli ariq va kanallarni betonlash orqali yiliga 450 million kub metr suvni tejash mumkin. Fermerlar va klasterlar ham 13 ming kilometr ichki tarmoqni betonlashtirdi. Yaqin kelajakda bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalardan biri 18 ming kilometr magistral va 94 ming kilometr ichki kanallarni betonlashtirishdir. Bu yiliga milliardlab kubometr suv tejalishtiga imkon beradi. Betonlanmagan kanallar va ariqlarning 40 foiz suvi tuproqqa singib ketishi isbotlangan.

Suvsizlikka chidamli yoki suv kam talab qiladigan ekinlar ekish lozim. Iqlim o‘zgarigan aniq. Bugun yog‘inlar miqdori ilgarigidek ko‘p emas. Tog‘larda muz erib, suv miqdori kamayib bormoqda. Bir vaqtlar qishda ikki va ikki yarim oy davomida qor yog‘ar va yerni qoplab turadi. Bahor va kuzda esa uzluksiz yomg‘ir yog‘ardi. Bugun tabiat butkul o‘zgarib ketdi.

Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Navoiy, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Farg‘ona va Andijon viloyatlarining qator tumanlarida yer osti suvi sathi 5-50 metrgacha pasaygan. Ushbu holatdan xabar topgan hukumat 2023-yilning sentyabrda yer osti suvi sathi pasayib borayotgan 23 tumanda quduqlarni burg‘ilashga moratoriy joriy etdi.

Suv masalasidagi ikkinchi muammo — O‘zbekistonning transchegaraviy qaramlik darajasi. Suv resurslarining atigi 20 foizi yurtimizda shakllanadi, qolgan qismi esa qo‘shni davlatlarning tog‘idan oqib keladi. Global isish natijasida Sirdaryo va Amudaryoni

KO‘ZGU 3



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



Dilorom YORMATOVA,
qishloq xo‘jaligi fanlari
doktori, professor,
“Mehnat shuhrati”
ordeni sohibi

suv bilan ta‘minlovchi muzliklarning qisqarib borishi ushbu daryolardagi suv hajmining kamayishiga olib keldi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, keyingi 50-yilda iqlim va antropogen omillar tufayli Sirdaryo va Amudaryodagi suv hajmi 20 foiz kamaydi. Afg‘onistonda qurilayotgan Qo‘shpeta kanali tufayli vaziyat yanada og‘irlashadi. So‘nggi ma‘lumotlarga qaraganda, Qo‘shpeta kanali va iqlim o‘zgarishi hisobiga Amudaryodagi suv hajmi 2028-yilda 19 foizgacha, 2030-yilda 29 foizgacha kamayadi.

Bugun respublika bo‘yicha kunlik suv iste‘molini tejash zarurati paydo bo‘lmoqda. Shunday ekan, suvni tejash va undan sifatli foydalanish uchun oldimizda qanday vazifalar turibdi va bundan buyon nimalar qilishimiz lozim?

Avvalo, global isishning oldini olish uchun ekologik masalalarga e‘tibor qaratishimiz zarur.

Suv taqchilligi va ekologiyani bir-biridan ayro ko‘rib bo‘lmaydi. Ekologik vaziyat yomonlashgan hududda, albatta, suv tanqisligi yuzaga keladi. Toshkent shahrida ularning oldidagi tomorqalarni va maysozorlarni sug‘orishga ruxsat berilmadi. Ekilgan ko‘chatlar qurib ketdi. Yashillik kamaydi. O‘ylab ko‘ring, suv bug‘lanib atmosfera ga chiqsa, qaytib tushadi. Atmosferada namlik bo‘lsagina yomg‘ir va qor bo‘lib qaytadi. Sug‘orishni to‘xtatsak, yashilliklar qurib ketsa, atmosfera ga faqat chang chiqsa, u yana chang holatida bizga qaytadi.

Toshkent shahrida ko‘p qavatli uylar qurilishi natijasida 40-50 yillik daraxtlar bildirmaygina kesib tashlanmoqda. Vaholanki, bu daraxtlar bizda kislorod yetkazib berish bilan birga changni ham ushlab turgan edi.

Suv tabiatdagi barcha jarayonda ishtirok etadi. Hatto arzon elektr quvvati ishlab chiqaradigan atom stansiyalari uchun ham kerak. Demak, suvga munosabatimizni tez o‘zgartirib, isrof bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘ymasligimiz lozim. Xullas, bugun suv muammosi ekologik muammodan strategik muammoga aylanib bo‘ldi. Suvni tejamaslik ijtimoiy barqarorlikni xavf ostiga qo‘yadi.

Tabiatda chuchuk suv, tuproq va toza havo cheklangan. Demak, ularidan foydalanishda aql bilan ilmiy yondashish zarur.

Biz qish va bahorda yog‘adigan qor, yomg‘ir hamda katta sellarning bekorga oqib ketadigan suvini kichik hajmdagi suv omborlarida yig‘ishimiz lozim. Bahorda suvni to‘plash uchun bugun — shu kecha-kunduzda suv to‘planadigan kichik suv omborlarini hozirlashimiz kerak.

Suv tanqis mamlakatlarda suv sarfida muayyan cheklolvar qo‘yilgan. Demak, bundan buyon belgilangan me‘yordan ortiq suv ishlatgan sanoat korxonalari va fermerlar jarima to‘lashi, suvni tejab ishlatgan korxona va fermerlar esa rag‘batlantirilishi lozim.

Saudiya Arabistonda yillik yog‘in miqdori 110-140 millimetr bo‘lishiga qaramay, tomdan oqib tushadigan suv to‘planadi. Buning uchun ularning tomiga katta ko‘k rangli bochkalari qo‘yilgan. Bu bochkalarda yog‘ilgan suv qayta ishlanib, tozalanib uylarga yoki qishloq xo‘jaligiga yo‘naltiriladi.

Bizda yillik yog‘in miqdori 300-320 millimetrga teng bo‘ladi. Saudiya Arabistoni tajribasini bizda bemalol qo‘llash mumkin. Yana bir gap. Tomlarga quyosh paneli o‘rnatib, olingan energiya evaziga uylardan chiqqan suvni qayta ishlash davr talabiga aylanib bo‘ladi.

Suvdan eng ko‘p foydalanuvchi soha qishloq xo‘jaligidir. Shu bois, tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orishga o‘tgan fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, kerak bo‘lsa, soliq imtiyozlari joriy qilish lozim.

Korxonalar, katta kompaniyalar, fermerlar va aholi o‘rtasida suvni tejash va asrab-avaylash to‘g‘risida targ‘ibot ishlarni uzluksiz olib borish, mahalla va ta‘lim muassasalarida chuchuk suvdan ratsional foydalanish usullarini misollar bilan tushuntirish zarur. Suvni tejash haqidagi shiorlar ko‘chalarga va ishxonalarga, odamlarning ko‘zi tushadigan yerlarga ilib qo‘yilishi shart. Shundagina suv muammosini ijobiy hal qilishimiz mumkin bo‘ladi.

2026-yil 5-fevral, 24-son

URBANIZATSIYA:

QULAY SHAHAR VA ARZON UY-JOY farovonlikning muhim omili

Yaqinda Prezidentimiz huzurida urbanizatsiya va uy-joy qurilishida yangicha yondashuvlarni joriy etish yuzasidan oʻtkazilgan taqdimotda aholining uy-joyga boʻlgan talabini qondirish maqsadida soʻnggi 8 yilda mamlakatimizda 120 million kvadrat metr yoki 600 mingdan ziyod xonadonlar qurilib, foydalanishga topshirilgani taʼkidlandi. Shuningdek, ushbu yillar mobaynida uy-joy sotib olishga koʻmaklashish uchun 541 ming nafar fuqaroga 103 trillion soʻm arzon ipoteka kreditlari va subsidiyalari ajratildi.



Komron NIGMATOV,
Urbanizatsiya va uy-joy bozori
milliy qoʻmitasi boʻlinmasi
boshligʻi

Davlatimiz rahbari qilingan ishlar hali yetarli emasligini koʻrsatib oʻtdi. Respublika boʻyicha har yili 200 mingtaga yaqin yangi oila tashkil topmoqda. Bu yangi uylar, yoʻllar va ijtimoiy infratuzilmaga talab yanada ortadi degani. Qolaversa, hozirda aholining bir kishi boshiga oʻrtacha 18,9 kvadrat metr turar joy maydoni toʻgʻri kelmoqda. Bu koʻrsatkichni kamida 23 kvadrat metrga yetkazish uchun 2040-yilgacha yangi uy-joy qurilishi surʼatini 280 mingtaga oshirish lozim.

Bundan ikki ming yil oldin Aristotel bunday degan edi: “Shahar devorlar bilan emas, unda yashaydigan odamlar bilan mavjud”. Bu fikr bugun ham ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq. Shaharlar qanday qurilayotgani, yerdan qaysi maqsadlarda foydalanilayotgani va uy-joy siyosati qay tarzda yuritilayotganiga oid masalalar odamlarning kundalik hayoti, xavfsizligi va kelajakka ishonchiga bevosita taʼsir oʻtkazadi.

Shu bois, bugun arzon uy-joy qurish masalasi faqat “metrlar — metrlar uchun” emas, balki shahar muhitining sifati, infratuzilmaning barqarorligi va jamiyat manfaatlarini nuqtayi nazaridan takomillashtirishga muhtoj.

Jahon bankingning maʼlumotiga koʻra, 2024-yilda dunyo miqyosida shahar aholisining ulushi umumiy aholining 57,7 foizini tashkil qilgan. Qolgan qismi qishloqlarda istiqomat qiladi. Oʻzbekistonda esa bu koʻrsatkich 50,6 foizni tashkil etadi. 2030-yilga qadar mamlakat aholisining shaharlarda yashaydigan ulushini bir necha foizgacha oshirish maqsad qilingan.

Prezidentimizning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasida bu sohaga alohida eʼtibor qaratilgan. Xususan, “Urbanizatsiya va shaharlarni barqaror rivojlantirish boʻyicha yangi islohotlarni boshlaymiz. Jumladan, shaharlar tartibsiz kengayishining oldini olish boʻyicha aniq mezonlarni belgilaymiz va shu orqali ekin maydonlari asossiz qisqarib ketishiga chek qoʻyiladi”, deya taʼkidlandi.

Urbanizatsiya deganda, koʻpchilik faqat shaharlarning kengayishi yoki yangi uylar

qurilishini tushunadi. Aslida, u odamlar yashaydigan muhiti qanday tashkil qilayotganimiz, shaharlarda ishlash, harakatlanish, dam olish va yashash qanchalik qulay ekanini haqidagi masala. Bu faqat binolar soni emas, balki yoʻllar, maktablar, bogʻchalar, shifoxonalar, jamoat transporti, yashil hududlar va xavfsiz jamoat makonlarining uygʻun tarzda rivojlanishidir. Toʻgʻri bajarilgan urbanizatsiya shaharlarni inson uchun xizmat qiladigan joyga aylantiradi. Notoʻgʻri yondashuv esa tirbandlik, infratuzilma yetishmasligi, yashash sifati pasayishi va oilalar uchun uy-joyning qimmatlashishiga olib keladi.

Shunday ekan, urbanizatsiya jarayonida shaharni rejalashtirishning odamning kunlik vaqti (masalan, uydan ishga, maktabga, tibbiyot muassasasiga borish uchun yoʻlga sarflanadigan muddat), oilaviy xarajatlari (ijara, kommunal toʻlovlar va hokazo) hamda salomatligiga (havo sifati, shovqin darajasi, yashil hududlar tufayli) taʼsiri oʻrganiladi.

Shaharlarning tartibsiz kengayishi — salbiy holat. Shahar yeri cheklangan resurs va u notoʻgʻri taqsimlansa, arzon uy-joy ham boʻlmaydi. Sodda

qilib aytganda, shaharlar eniga emas, balki boʻyiga oʻsishi kerak. Aks holda, bir yoki ikki qavatli uylar uchun infratuzilma — yoʻl qurish, elektr, gaz, suv quvurlari tortish qimmatga tushadi.

Biroq bu yondashuv shaharni koʻp qavatli uylar bilan betartib toʻldirish kerakligini anglatmaydi. Aksincha, bunday qurilish chuqur ilmiy tahlillar va aniq hisob-kitob asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda shamol yoʻnalishi (shamol guli), havo aylanishi, yashil hududlarning saqlanishi va jamoat hududlarining uygʻun joylashuvi inobatga olinishi shart. Aks holda, koʻp qavatli binolar shahar muhitini yaxshilash oʻrniga havo ifloslanishi, issiqlik orollari paydo boʻlishi va inson salomatligiga salbiy taʼsir oʻtkazishiga sabab boʻladi. Shu bois, vertikal urbanizatsiya deganda, avvalo, aql bilan, ilmiy va strategik yondashuv asosida quriladigan shaharni tushunish kerak.

Urbanizatsiyaning ikkita muhim vositasi mavjud. Bu — renovatsiya va kompleks qurilish loyihalari. Renovatsiya deganda, eski uy-joylarni buzib, oʻrniga faqat yangi binolar qurish emas, balki butun hududni zamonaviy hayot talablariga mos ravishda qayta tiklash tushuniladi. Baʼzi eski mahallalarda muhandislik tarmoqlari eskirgan, uylar xavfsizlik talablariga javob bermaydi, infratuzilma esa aholi ehtiyojini qondirmaydi. Aynan renovatsiya orqali shu muammolar bartaraf etiladi va shaharni kengaytirmay, ichida sifati oʻzgarish qilish mumkin.

Kompleks qurilish nafaqat bino qurish, balki inson yashaydigan muhiti toʻliq shakllantirishdir. Yaʼni uy-joy bilan birga maktab, bogʻcha, shifoxona, yoʻl, jamoat transporti, yashil hududlar va xizmat koʻrsatish obyektlari bir vaqtning oʻzida rejalashtiriladi va quriladi.

Agar qurilish faqat uy-joy bilan cheklansa, toʻgʻri, odamlar “vatani” boʻlib qoladi, ammo noqulay shahar sharoiti paydo boʻladi. Koʻpchilik bunday hududlarni kuzatgan boʻlishi mumkin: uylar bir-biriga haddan tashqari jips joylashgan, yashil hududlar maydoni oz, shamol yoʻnalishi toʻsib qoʻyilgan. Natijada fuqaroda goʻyo nafasi siqilganday holat yuzaga keladi. Yaʼni bu hudud



Tahlil



qurilganda kompleks qurilish tamoyili inobatga olinmagan boʻladi.

Xoʻsh, qulay shahar sharoiti andazalari qayerdan olinadi? Avval bu boradagi xalqaro standartlarga murojaat qilinadi. Oʻzbekiston xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchisi, jumladan, BMTning toʻlaqonli aʼzosi. Mamlakat BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini roʻyobga chiqarishda faol ishtirok etmoqda. Mazkur maqsadlarning oʻn birinchisi shahar va aholi punktlarining ochiqligi, xavfsizligi, hayotiy va ekologik barqarorligini taʼminlashdir.

Mazkur maqsad BMTning aholi punktlari boʻyicha dasturi orqali roʻyobga chiqariladi. Bugun u orqali 90 ga yaqin davlat oʻz shaharlarini takomillashtirmoqda. Mazkur dastur shaharlarni faqat iqtisodiy oʻsish nuqtayi nazaridan emas, balki inson huquqlari, ijtimoiy adolat va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan uygʻun holda rivojlantirishni ilgari suradi. Uning zamirida, shuningdek, uy-joy masalasini hal etishda yerdan oqilona foydalanish gʻoyasi ham mujassam.

Xalqaro standartlardan tashqari rivojlangan shaharlar misolida ham urbanizatsiya jarayonini koʻrib chiqsak. Masalan, Singapur zichlik sharoitida ham yashil shahar yaratish mumkinligini isbotladi. Singapurda bir kvadrat kilometrga oʻrtacha 8000 dan ortiq kishi toʻgʻri keladi. Bu koʻrsatkich koʻplab yirik megapolislardagidan yuqori. Shunga qaramay, shahar maydonining qariyb 50 foizi yashil hududdan iborat. Davlat

siyosatiga koʻra, har bir yirik turar joy majmuasida bogʻlar, bolalar maydonchasi va dam olish hududlari boʻlishi majburiy.

Notoʻgʻri qarorlarni tuzatish orqali shaharni qayta qurishga Seulni misol qilib keltirish mumkin. Seulda bir paytlar shahar markazidan oʻtgan Chxonggechxon daryosi avtomobil yoʻli ostida qolib ketgan edi. 2000-yillarda bu yoʻl buzilib, daryo qayta ochildi va uning atrofida 10 kilometrdan ortiq yashil hudud barpo etildi. Natijada shahardagi havo harorati 3-4 daraja pasaydi, biznes va turizm faollashdi. Eng muhimi, odamlarni shahar markaziga qaytarishga erishilgan. Seuldagi renovatsiya xarajat emas, balki uzoq muddatli investitsiya ekanini koʻrish mumkin.

Murojaatnomada ekin maydonlari asossiz qisqarib ketishiga yoʻl qoʻyilmaligiga bejiz eʼtibor qaratilmagan. Zero, qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar barcha davlatlarda alohida, cheklangan muomaladagi yer toifasidir. Ularning qiymati faqat hozirgi foydalanishida emas, balki oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashda ham namoyon boʻladi.

Ikkinchidan, qishloq xoʻjaligi yerini shaharsozlik uchun zaxira sifatida koʻrish maqsadga muvofiq emas. Sababi amaliyotda quruvchilar bosimi va moliyaviy manfaatlar taʼsirida ekin maydonlari keskin qisqarishi mumkin.

Qishloq xoʻjaligi yeri — tiklanmaydigan resurs. Qurilishdan soʻng bu yerni rekultivatsiya

qilish (tiklash) texnologik jihatdan deyarli imkonsiz va moliyaviy qimmat. Yerdagi gumus qatlami asrlar davomida shakllanadi. Shuning uchun, masalan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi tashkiloti ekin maydonlarini asrashga qatʼiy chorlaydi.

Uchinchidan, urbanizatsiya zichlashtirish va sifatini oshirishdir. Ushbu tushunchani qishloq xoʻjaligi yerini oʻzlashtirish bilan aralashtirish urbanizatsiya gʻoyasining oʻziga ziddir.

Shuning uchun bugun shaharsozlik sohasiga oid qarorlarning har qanday oqibati kelajak avlodlar zimmasiga yuklanishini yodda tutish lozim.

Prezidentimiz aglomeratsiya hududlarini belgilash vazifasini ham topshirdi. Xoʻsh, bu shu paytgacha koʻpchilik uchun nomaʼlum va sirli boʻlgan “aglomeratsiya” oʻzi nima?

Zamonaviy sharoitda shahar faqat oʻz maʼmuriy chegarasi bilan cheklanib qolmaydi. Koʻplab insonlar shahar chetida yoki qoʻshni tuman va qishloqlarda yashab, har kuni markazga ishga, oʻqishga qatnaydi. Ana shu tabiiy hayotiy jarayon aglomeratsiyaning vujudga keltiradi. Boshqacha aytganda, aglomeratsiya deganda shahar va uni oʻrab turgan hududlarning yagona organizmdек ishlashi tushuniladi. Agar bu jarayon oldindan rejalashtirilmasa, transport tirbandligi, infratuzilma yetishmasligi va yer resurslarining samarasiz sarfi yuzaga keladi. Shu bois, aglomeratsiya yondashuvi shaharlarni betartib kengaytirish oʻrniga uy-joy, ish oʻrinlari va transportni oʻzaro bogʻliq holda rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa nafaqat shahar markazi, balki butun atrofdagi hududlar uchun ham sifatli hayot muhitini yaratadi.

Bugun 14 ta yirik aglomeratsiya mavjud: Toshkent shahri; Oʻrta Zarafshon (Samarqand — Kattaqoʻrgʻon — Navoiy); Andijon — Asaka — Shahrixon; Namangan — Toʻraqoʻrgʻon — Chortogʻ; Qashqadaryo (Qarshi — Kitob — Shahrisabz — Koson); Fargʻona — Margʻilon — Quvasoy; Nukus; Ohangaron (Angren — Olmaliq — Ohangaron); Surxondaryo (Termiz — Denov); Xorazm (Urganch — Xiva); Quyi Zarafshon (Buxoro — Kogon); Qoʻqon; Chirchiq hamda Yangiyoʻl — Chinoz.

Ushbu hududlarda jami 12,5 millionga yaqin odam yashaydi. Asosiy maqsad aglomeratsiyada uy-joy fondi va shahar muhiti rivojlantirish hamda qurilishning oʻrtacha zichligini oshirishdir.

Prezidentimizning 2025-yil 19-noyabrdaagi “Oʻzbekiston Respublikasida uy-joy va ipoteka bozorini barqaror rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni bilan Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qoʻmitasi tashkil etildi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasida 2040-yilgacha boʻlgan davrda uy-joy va ipoteka bozorini barqaror rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari va uning koʻrsatkichlari tasdiqlandi.

Qoʻmita urbanizatsiya jarayoni, uy-joy qurilishi, renovatsiya va ipoteka sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, shuningdek, ushbu yoʻnalishdagi dasturlarni muvofiqlashtirish va rivojlantirish boʻyicha vakolatli davlat organi etib belgilandi.

Yangi qoʻmita tashkil etilishi, aglomeratsiya yondashuviga oʻtish, master-rejalar va kompleks qurilishni joriy etish mazkur siyosatning mantiqiy davomidir. Qurilayotgan, yangilanayotgan shaharlarni boshidanano toʻgʻri rejalashtirish, uni tuzatishga zarurat qolmaydi. Shaharlarimizning ertangi qiyofasi aynan bugun shakllanmoqda. Urbanizatsiya masalalariga hozir qay darajada ongli va mas’uliyatli yondashsak, kelajakda shaharlarimiz shunchalik yashash, mehnat qilish va farzand tarbiyalash uchun qulay boʻladi.

Yer va el

TO‘RA OTANING TAVAKKALI

katta tajriba va mehnatga tayangan

Kasbi tumani Jizza qishlogʻida yashovchi Toʻra ota Doniyorov nafaqaga chiqqach, uyda oʻtirishdan zerikadigan boʻlib qoldi. Doimiy mehnatga, odamlar orasida boʻlishga oʻrganib qolgandi. Shu paytgacha bunday holatga eʼtibor qilmagan ekan. Katta jamoada mehnat qilib, vaqt qanday oʻtganini bilmasdi. Kasbini yaxshi koʻrgani bois, ishga everta borib, kech qaytardi. Qolaversa, qishloq xoʻjaligida ilgʻor yetakchi edi. Oʻshanda doim jamoa orasida boʻlish boshqacha ekanini his etdi...



Toʻgʻri, gohida guzarga chiqar, uch-toʻrt tengdoshi bilan suhbatlashib chalgʻirdi goʻyo. Baribir bekor oʻtirishga odatlanmagani uchunmi, bunday ovunish yarim soatdan nariga oʻtmasdi. Xullas, doimiy biroz yumush bilan mashgʻul boʻlish harakatiga tushdi. Pensiya qachon kelarkan deya kutib oʻtirish esa noqulay. Oʻzicha reja tuzdi. Mahallada boʻsh turgan yerda hovuz qurishga kirishdi. Bu ish bitgach, tanishlari orqali baliq chavoqlarini keltirdi.

Avvalbina binoyidek edi, lekin oʻziga yarasha tashvishlari koʻp ekan, koʻzlangan natijaga erisha olmasdi. Shunday boʻlsa-da, harakatdan toʻxtamadi. Shu joyga limon ekadigan boʻldi. Yerga ishlov berdi. Mahalliy oʻgʻit bilan tuproqni boyitdi. Tavyor boʻlgach, koʻchatlarni oʻtqazdi. Kuzgacha ustini yopib, issiqxona qurdi. Lekin negadir nihollar rivojlanishi sust edi. Turli agrotexnik tadbirlarni oʻtkazdi. Baribir ish koʻngildagidek boʻlmadi. Koʻchatlar oʻsishidan toʻxtab qoldi. Otaning ishtiyoqi soʻndi. Noliq yetakchi mutaxassislardan maslahat soʻradi. Ular ham joʻyalik fikr bildira olmasdi. Boshqa biroz mevali daraxt ekish haqida oʻylay boshladi. Ijtimoiy tarmoq orqali tajribali dehqonlar ishini oʻrgandi. Shu orada banan yetishtirishga doir manbaga koʻzi tushdi. Yaxshilab oʻrganib chiqdi. Tavakkal qilib koʻp yillik shu oʻsimlik nihollarini oʻtqazishga ahd qildi.

Keksa dehqonning bu niyatidan xabar topganlar ajablandi. Ayrimlar koʻp yilgan

qaytarmoqchi ham boʻldi. Kimdir “Banan issiq oʻlkalarda oʻsadi. Bizning sharoitda yaxshi hosil bermasa kerak”. Xarajat va mehnatni qoplamaydi”, deya otaning shashtini soʻndirmoqchi ham boʻldi. Ammo otaxon hech gapga parvo qilmadi. Vodiylk banan yetishtiruvchilar bilan bogʻlandi. “Banan oʻsimligi faqat ekvator atrofidagi issiq va nam iqlimli tropik mintaqalarda yetishtiriladi deb oʻylangandek adashadi” degancha yoʻlga chiqdi. Andijon viloyatining Buloqboshi tumanidan 250 tup banan koʻchatini keltirib oʻtqazdi.

Keyingi yillarda nafaqat vodiylk, balki qashqadaryolik tajribali dehqonlar ham ushbu sitrus mevani yetishtirishning hadisini ola boshlaganini amalda isbotladi. Natijasi yomon boʻlmadi. Mana, 73 yoshli Toʻra bobo Doniyorov ikki yildan buyon banan yetishtirib, el dasturxoniga yetkazib bermoqda. Bugun kattagina issiqxonasida banan moʻl hosilga kirgan. Uni koʻrib, dehqonning mehnatiga qoyil qolmay ilojingiz yoʻq.

— Bir necha yil qishloq xoʻjaligi sohasida faoliyat yuritdim, — deydi bobo. — Pensiya qisqach, boʻsh vaqtim koʻp boʻldi. Boshida baliq yetishtirishga urindim. Koʻngildagidek boʻlmadi, kutilgan natijani ololmadik. Keyin hovuz oʻrniga issiqxona qurib, limon ekdik. Parvarishida adashdik shekilli, u ham ijobiy natija bermadi. Yangi ish boshida xatolik, adashishlar ham boʻlarkan-da. Soʻng internetda banan yetishtirish haqidagi videorolikni koʻrib qoldim. Shunga qiziqish paydo boʻldi. Viloyatimizda bu



yoʻnalishda ishlaydigan dehqonlarni surishtirib topolmadim. Keyin boshqa viloyatlardagi mutaxassislar bilan tanishdim. Ulardan sohaga oid maʼlumotlar oldim, tajribasi bilan tanishib chiqdim. Mehnat qilgan kam boʻlmagan ekan. Bugun hosil koʻzni quvnatadi. Keltirgan foydasi esa roʻzgʻorga naf. Qolaversa, hali rejalarimiz koʻp...

Keksa dehqonning taʼkidlashicha, hozir issiqxonada oilaviy mehnat qilinadi. Oʻrgan yili ilk bor bananlar hosilga kirib, koʻchatlar orasiga ekilgan bodring bilan birga yaxshigina daromad keltirgan. Ayni paytda esa issiqxonada 800 tupga yaqin banan baravj rivojlanmoqda.

— Issiqxonamizni shu darajaga keltirib olish oson boʻlmadi. Baʼzilar haligacha ishonmaydi.

Bir paytlar “Bu oʻsimlik bizning tuproqda oʻsmaydi”, deganlar hozirgi holatga guvoh boʻlib, jim ketmoqda. Albatta, oʻziga yarasha sir-asrori, mehnati bor. Nima boʻlganda ham malakali kishilar tavsiyasi asosida ish tashkil etilsa, koʻzlangan natijaga erishiladi, — deydi Toʻra bobo. — Tumanimiz iqlimiga moslashmasa kerak deb oʻylagandim. Aksincha, banan yaxshi rivojlanadi. Hozir har bir tupi 20-30 kilogacha hosil berishini taxmin qilyapmiz. Joriy mavsumda 6 tonnaga yaqin meva olish rejamizda bor. Koʻpchilik usta dehqonlarning fikricha, serquyosh zaminimizda yetishtirilgan banan sifati chet eldan keltirilganidan ustun turar ekan. Shu bois, xaridori koʻp. Hosil yigʻishtirib olingach, tagidan kesib

tashlanadi. Ildizidan ikki-uchta boʻlib yangisi koʻkarib chiqadi va tez muddatda bahaybat boʻlib oʻsib ketadi, yaʼni nihollari tez koʻpayadi.

Yam-yashil banan daraxtlari qorli va sovuq boʻlgan qish paytida kishiga oʻzgacha bahoriy kayfiyat ulashadi. Odamning bahri dili ochiladi. Har bir tupa yetilayotgan meva esa tez fursatda el dasturxonini toʻldiradi. Bozordagi xaridor ham hosil xorijiy davlatda emas, balki Jizza qishlogʻida yetishtirilganini ehsitasa, ajablanishi aniq.

— Qish fasli boʻlgani uchunmi, issiqxonaga kirgan kishining yashillikdan kayfiyati koʻtariladi, — deydi Toʻra Doniyorov. — Har kuni ertalab issiqxonani bir aylanib chiqsam, kun davomida oʻzimni yengil his qilaman. Axir odam oʻz mehnati mahsulini koʻrib toʻzi quvnaydi-da. Gohida pishgan hosildan olib, shu yerning oʻzida tatib koʻraman. Nabiralaringa beraman. Bundan tashqari, boshqa mahsulotlar ham tomoqimizda yetishtiriladi. Bozordan deyarli hech narsa sotib olmaymiz.

Haqiqatan, bugun bobo rahbarlik qilayotgan “Toʻra asl asali” sabzavotchilik fermer xoʻjaligida bugun turli qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirilmoqda. Shuningdek, hududda mevali va manzarali daraxt koʻchatlari ham ekilib, parvarishlanmoqda. Otaxon kelgusida banan koʻchatlari ekilgan maydonni yana 15 sotixga kengaytirishni maqsad qilgan. Demak, hosildorlik ham shunga yarasha koʻpayadi.

Tarmogʻi tobora kengayib borayotgan xoʻjalikda bugun parrandachilik ham yoʻlga qoʻyilgan. Oʻrgan yil yakunida 5 tonnadan ortiq tovuq goʻshti mahalliy bozorlarga yetkazib berilgan. Hozir 6000 ta broyler joʻja parvarishlanmoqda. Ular belgilangan vaznga yetishi uchun zarur sharoit yaratilgan. Muayyan muddatdan soʻng sotiladi. Oʻrniga esa yana joʻja olib kelinadi.

Keksa dehqon boshchiligidagi oilaning yillik daromadi moʻmaygina. Toʻra otaning fikricha, foydani sanalsa, barakasiz uchadi. Ammo choʻgʻi balandligi aniq. Eng muhimi, halol mehnat ortidan kelayotgan mablagʻ orzu-niyatlar ijrobatiga xizmat qilmogda. Havas bilan ishini oʻrganishni maqsad qilganlarga esa otaxon koʻmaklashishga doim tayyor.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



MAHORATLI, SHIJOATLI YOSHLAR BAHSI

Qo'shtepa tumanidagi "Do'stlik" mahalla fuqarolar yig'ini yoshlari uchun zamonaviy mezonlar asosida universal sport maydoni qurib berildi. Bu bejiz emas.

Ular mahalla yoshlari o'rtasida o'tkazib kelinayotgan "Besh tashabbus olimpiadasi"da voleybol bo'yicha 22-26 yosh toifadagi ayollar bellashuvida g'oliblikni qo'lga kiritdi. Musobaqa nizomiga ko'ra, sovrindorlar uchun mahalla hududida zamonaviy sport o'yingohi barpo etildi. Majmuada sportsevar yoshlar uchun yaratib berilgan sharoit va imkoniyatlar havasizingizni keltiradi. Voleybol, mini futbol o'yingohlari, yugurish yo'laklari yoshlar ixtiyorida.

— G'alabalarga osonlik bilan erishganimiz yo'q, — deydi jamoa a'zosi Havoxon Nurmatova. — Mahallamizda ommaviy sport turarlarga, xususan, voleybolga qiziqish katta. Lekin kerakli sharoit, jihozlar yo'q edi. Qishda loy, yozda chang o'yin maydonlari mashg'ulot uchun noqulay, talabga mutlaqo javob bermasdi. Yangi sport maydoni qulayliklari yoshlarning sport bilan muntazam shug'ullanishiga katta imkoniyat yaratdi.

Universal sport maydonida mahalla yoshlari ishtirokida turli sport tadbirlari, bellashuvlar o'tkazish an'anaga aylangan. Ayni kunda yoshlar o'rtasida voleybol, futbol bahslariga start berildi. G'olib va saralab olinganlar



yosh toifasiga ko'ra mahalla jamoasi sharafini himoya qilib, nufuzli musobaqaning bu yilgi bahslarida munosib ishtirok etishga hozirlik ko'rmoqda.

Davlatimiz rahbarining "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida olis va chekka qishloqlarda ham shahardagidan qolishmaydigan zamonaviy sport maydonlari qurish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sport turarlari imkonlashtirish yo'lida yangi tashabbuslar quloch yoymoqda.

Stritbolning A ligasida 22-30 yosh toifasidagi qizlar o'rtasida Toshkent viloyati Chirchiq shahri mezbonligiga o'tgan musobaqada ikkinchi o'rinni qo'lga kiritgan Quva tumani "Rasta" mahalla fuqarolar yig'ini yoshlari uchun stritvorkaut maydonchasi qurib berildi.

— Respublika tumirida g'oliblar qatorida bo'lganimizdan haqli ravishda faxrlanamiz, — deydi jamoa a'zosi Muxlisa Matkarimova. — Mahallamiz tuman markaziga yaqin joylashgan bo'lsa-da, yoshlarning sport bilan shug'ullanishi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi uchun yetarli sharoit yo'q edi. Majmua bu borada yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Ular yuksak

Hakimov. — Bellashuvlar qizg'in va murossasiz kurashlarga boy kechmoqda. Shu kunga qadar nufuzli bahslarga mahallalardagi 785 mingdan ortiq sportsevar yosh qamrab olindi. 1200 dan ziyod iqtidorli yosh taniqli sport jamoalarining faol a'zosiya aylandi.

Ommaviy sport musobaqalarining 2025-yilgi birinchi va ikkinchi mavsumi yakuniga ko'ra, 6 ta oltin, 16 ta kumush, 12 ta bronza medal qo'lga kiritildi. Erishilgan natijalarga ko'ra, 12 ta mahalla fuqarolar yig'iniga universal, stritvorkaut, vorkaut sport maydonchalari qurish bo'yicha maxsus sertifikatlar topshirildi. Bundan tashqari,

16-30 yosh toifasida para yengil atletika, para shashka, para shaxmat, para stol tennis, para kibersport bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarning respublika bosqichida 266 nafar yosh ishtirok etib, 3 ta oltin, 4 ta kumush, 3 ta bronza medalga sazovor bo'ldi. O'tgan ikki yil davomida musobaqa bosqichlarida yuqori saviyada ishtirok etib, g'olib bo'lgan 70 dan ortiq mahalla fuqarolar yig'ini yoshlari uchun zamonaviy sport maydonchalari qurib, foydalanishga topshirildi.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Ommaviy sport musobaqalarining 2025-yilgi birinchi va ikkinchi mavsumi yakuniga ko'ra, 6 ta oltin, 16 ta kumush, 12 ta bronza medal qo'lga kiritildi.



Hulkan TO'YMANOVA,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist

Qani ayt, maqsading nimadir sening, Nega tilkaysan bag'rinni, ohang? Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim, Nechun kerak senga, rubob, shuncha g'am?

Tanish misralarni esladigizmi? O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov qalamiga mansub "Munojot"ni tinglab, she'ri har bir yurakni yig'latadi, insonni o'ylatadi... Uning yakuniy satrlaridan lol qolamiz:

Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga, Qanday chiday olgan ekan odamzod?

Davlat miqyosidagi e'tibor

Darhaqiqat, maqom taronasini tinglaganda sel bo'lamiz, beixtiyor boshimiz tebrana boshlaydi. Go'yo olis o'tmish qa'ridan taraluvchi maqom bizni allalab, teran mushohadaga undaydi. Binobarin, maqom boy meros, tuganmas xazina, ajdoddan bizgacha yetib kelgan ko'hna san'at turidir. Usiz o'zbek qo'shiqchilik san'atini tasavvur etish mushkul. Jonajon yurtimizda maqom san'atining ham mazmunan, ham uslubiy, ham hududiy jihatdan boy tarixi shakllangan. XVIII asrda Buxoroda yangi turkum — shashmaqom, XIX asrda Xorazm maqomlari va keyinchalik Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari vujudga keldi. Xalqimiz o'tmishi bilan bog'liq boy madaniy merosni saqlab qolish, yosh iste'dod egalari o'rtasida maqom san'atiga qiziqishni oshirish maqsadida Prezidentimizning 2017-yil 17-noyabrda "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Toshkent shahrida "O'zbek milliy maqom san'ati markazi" tashkil etildi. Uning faoliyatini muayyan tizimga solingach, oradan ikki yil o'tib, ya'ni 2019-yil 5-sentabrda Vazirlar Mahkamasining "O'zbek maqom san'ati markazi huzuridagi Marg'ilon shahar musiqali maqom teatri faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Nima uchun aynan Marg'ilon shahrida shunday madaniyat maskanini tashkil etish zarurati tug'ildi?

Marg'ilon ahlil qadimdan ashinavanda, kuy-qo'shiq, katta ashula, raqs, askiya, dorbozlik san'ati kirib bormagan xonadon deyarli yo'q. Marg'ilon, Qo'qon, Farg'ona choyxonalari, avvalo, hofizu sozandalar, qiziqchiy askiyabozlar to'planib, diydorlashadigan va san'ati sinovdan o'tkazilib, baho beriladigan joy bo'lgan.

O'tgan asrning 30-yillaridan boshlab Farg'ona viloyatida maqom san'atining Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonov, Bolta hofiz Rajabov, Erka qori Karimov, Tavakkal Qodirov kabi mashhur darq'alari yetishib chiqqani barchamizga ma'lum. Mana bir asrdan oshdiki, Marg'ilonda har yili san'atkorlar anjumanini o'tkazish doimiy an'anaga aylangan. Nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyodagi



boshqa davlatlardan ham xonandayu sozandalar bu anjumanga keladi, kim nimaga qodirli katta davrada sinab ko'riladi. Shu bois, Marg'ilondagi ko'hna madaniy muhit musiqali maqom teatri ochilishiga asos hozirladi. Teatr repertuaridan nomlari zikr etilgan va etilmagan boshqa san'atkorlarning yuzlab sara kuy va qo'shiqlari o'rinda egallab kelmoqda.

— Farg'ona vodiysi maqom san'atida katta ashula, yalla, ijrochilik an'analari bilan birga maqom namunalari salmoqli o'rinda tutadi. Maqom san'atini teran tushunadigan qatlam asosan san'atkorlardir. Bu qadimiy san'at turi bizni olis moziyga yetaklaydi, ajdodlarimiz hayotidan sado beradi, o'tmish bilan bugungi qiyoslashga o'rgatadi. Demak, uni ommalashtirib, keng miqyosda targ'ib-tashviq etsak, farzandlarimiz ongu shuuri tiniqlashib, ota-bobolarimiz ko'hna merosiga qiziqish va mehr-muhabbat shakllanadi, — deydi maqom teatri direktori Foziljon Ismoilov. — Musiqali maqom teatrimiz repertuarini asosan tarixiy ruhda, faqat mumtoz ashulani singdirish mumkin bo'lgan pyesalar hisobiga shakllantirmoqdami. 2025-yil ancha sermahol bo'ldi. Teatrda 336 spektakl (konsert) namoyish etildi. Mahalliy va xorijiy gastrol safarlari, davlat tadbirlarida o'z o'limiz bor. 5 yangi spektakl va bir qancha konsert dasturlari Madaniyat vazirligi badiiy-ekspert guruhiga topshirilib, ijobiy xulosa olindi. Qaysi asar sahnalashtirilsa,



har bir spektakl mazmunidan kelib chiqqan holda sujyet va kompozitsiyaga, albatta, mumtoz maqom namunalari singdirib yuboriladi. Teatrimiz ish boshlagan dastlabki yillarda tomosha zaliga sanoqli kishi kelar, qancha qilib, ko'proq ommani jalb qilish haqida o'ylardik. Mana bunga erishdik ham. 2024-yilda teatrimizga 53 ming 446 tomoshabin kirgan bo'lsa, o'tgan yilgi ko'rsatkich 93 ming 190 kishini tashkil etdi. Demak, xalqimizning maqomni tushunish, qabul qilish, tarbiyaviy va ta'sirchan kuchini anglash darajasi o'zgarmagani. Birinchi rejalarimizni ham puxta tuzib oldik. Bu yilgi chorakda Xo'jamberdi Egamberdiyevning "Nola aylarman" maqom konserti, keyingi chorakda Tolibjon Ro'ziyoyevning "Burhoniddin Marg'inoniy" tarixiy dramasi muxlislar hukmiga havola etamiz. Shavkat Pardayevning "Afandizoda" komediyasi, To'ra Mirzoning "O'tkan kunlar" musiqali dramasi ham yillik rejamizga kiritilgan.

Navoiy siymosi — sahnada

Tomosha zalida sukunat, sahnada esa o'tmish lavhasi. Hazin navo taralib, izidan jo'rovovlikda katta ashula boshlandi. Dunyoni zir titratgan shoh Iskandar Zulqarnayn siymosi paydo bo'lishi bilan sahnada o'zgacha jonlanish

kuzatildi. Uning mag'rur qaddi-basti, monologi sahnani ham zir titratgandek bo'ldi. "Iskandar" spektaklidagi voqelik, obrazlarning bir-birini to'ldirishi, asar ruhiga mos maqomning ijro etilishi, xullas, barchasini to'liq kompozitsiya deyish mumkin.

Ushbu pyesani Farg'ona viloyati musiqali drama teatri bosh rejissyori Obidjon Abdullayev sahnalashtirdi. 21 personaj ishtirok etuvchi maqom spektaklida asosan Alisher Navoiyning voqelikka mos g'azallaridan foydalanildi. Unda ilgari surilgan g'oya ham umuminsoniy qadriyatlariga yo'naltirilgan.

— Iskandar obrazi haqida ko'plab munozaralar mavjud, — deydi spektaklda bosh rolni ijro etgan iste'dodli aktyor Javlonbek Rahmonov. — Ilm ahli o'rtasida ham Iskandar Zulqarnayn boshqa, makedoniyalik Aleksandr Makedonskiy boshqa degan bahs mavjud. Hazrat Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida ikkala obraz birlashib, sharqona ohang bilan yo'g'rilgan. Spektaklda shoirning "Munojot", "Tarahhum qilmadi", "Qaro bo'lubdir", "Vafo" kabi g'azallari asosida kuylangan maqom namunalari ijro etildi. U barcha podshohlarga namuna sifatida ifoda etiladi. Iskandar va shoh Doro qissalari asos qilib olingan asar prologida Hazrat Navoiy beshinchi doston — "Saddi Iskandariy"ni yozishga qo'li bormay, "Xamsa"ni yozishga chog'langanidan xijolat chekib turganini



har bir spektakl mazmunidan kelib chiqqan holda sujyet va kompozitsiyaga, albatta, mumtoz maqom namunalari singdirib yuboriladi. Teatrimiz ish boshlagan dastlabki yillarda tomosha zaliga sanoqli kishi kelar, qancha qilib, ko'proq ommani jalb qilish haqida o'ylardik. Mana bunga erishdik ham. 2024-yilda teatrimizga 53 ming 446 tomoshabin kirgan bo'lsa, o'tgan yilgi ko'rsatkich 93 ming 190 kishini tashkil etdi. Demak, xalqimizning maqomni tushunish, qabul qilish, tarbiyaviy va ta'sirchan kuchini anglash darajasi o'zgarmagani. Birinchi rejalarimizni ham puxta tuzib oldik. Bu yilgi chorakda Xo'jamberdi Egamberdiyevning "Nola aylarman" maqom konserti, keyingi chorakda Tolibjon Ro'ziyoyevning "Burhoniddin Marg'inoniy" tarixiy dramasi muxlislar hukmiga havola etamiz. Shavkat Pardayevning "Afandizoda" komediyasi, To'ra Mirzoning "O'tkan kunlar" musiqali dramasi ham yillik rejamizga kiritilgan.

Ikki san'at turi yaxlit shaklda

Maqom — qo'shiqchilik san'atidagi katta yo'nalish. Uni sohir, kuchli ovoz diapazoniga ega san'atkorlarga ijro etadi. Unga qo'yilgan talabni ado etish uncha-muncha xonandaning

qo'lidan kelavermaydi. Tasavvur qiling, pyesa spektaklga aylantirilib, maqom taronasi bilan uyg'unlashtirilsa, bu ikki san'at turi yaxlit shaklga aylanadi. Bu esa maqom va teatr san'ati uchun ham yangilikdir! Teatr bosh rejissyori Xo'jamberdi Egamberdiyev buni quyidagicha izohlaydi:

— Maqomning teatr san'atiga tatbiq qilinishi mutlaqo yangicha yondashuv bo'ldi. To'g'ri, deyarli barcha viloyatda musiqali drama teatri faoliyat yuritadi va drama mazmuniga mos kuy-qo'shiq singdiriladi. Ammo bizdagi jarayon bundan jiddiy farq qiladi. G'azalni aktyor o'qiydi, avj pardasiga yetganda ansambli a'zolari unga qo'shilib ketishi kerak. Eng nozik va murakkab jihati ham shunda. 15 sozanda, 6 ayol va 8 erkak xonandamiz bor. Maqom namunalari tanlanganda xonandaning ovoz diapazoni, ijro uslubi, salohiyatiga e'tibor qaratamiz. Qaysi davrga mos asar yaratilsa, o'sha zamonda yashab o'tgan mumtoz shoir g'azalini tanlash maqsadga muvofiq. Har bir maqom spektakliga beshtadan o'ttagacha

g'azal singdiramiz. Maqom teatrlarining yana bir murakkabligi shundaki, Navoiy, Bobur, Ogahiy kabi shoirnlarning g'azallariga hammaning ham "tishi" o'tavermaydi. Taniqli rejissyor Bahodir Yo'ldoshev ta'biri bilan aytganda, agar spektakl ko'rishga kelgan 700 tomoshabindan yettitsi uni tushunib, ta'sirlanib chiqib ketsa, shuning o'zi ham katta natija. Eng muhimi, maqomni teatr san'atiga kiritishdan ko'zlanayotgan asosiy maqsad — mumtoz ashulachilikni ommalashtirishga sekin-asta erishyapmiz. Yillar o'tadi, teatrimizning tomosha zali hozirgidan ham gavjumlashadi.

Hozirga qadar teatrimizda 20 ta maqom spektakli yaratilgan bo'lsa, har biri katta mashaqqat, izlanish, o'qib-o'rganish mahsulidir. Fariduddin Attorning "Illohionoma" asaridan olingan "Robiya bilan Bektosh" qissasi asosida ishlangan "Ikki qalb nolasi" spektakli so'nggi yillardagi sa'y-harakatlarimiz mevasi bo'ldi. Dramaturg Tolibjon Ro'ziyoyevning "Umidim bor" spektakli zamonaviy ruhda bo'lgani bois, omma yaxshi qabul qildi. Uning sujyetida ota-onasi go'dakligida tashlab ketgan yigitning taqdiri aks etgan. Bosh qahramon o'zining tashlandiq bola ekanini anglagandan so'ng boshidan kechirgan ruhiy iztirobi juda ta'sirli. Yigit o'zini voyaga yetkazgan momo haqiqiy onasi emasligini bilib qolgach, uning vasiyatiga ko'ra ota-onasini izlab yo'lga tushar ekan, ruhiyatida juda katta evrilish ro'y beradi. U goh kibr, hasad, ig'vo, adovat o'tida qovrilsa, goh mehr, adolat, haqiqat, e'tiqod tuyg'ulari yordamida to'g'ri yo'lni topishga muvaffaq bo'ladi. Asardagi ayrim voqealar mazmuniga mos maqom qo'shiqlari shoir Ismoil Mahmud g'azallari asosida singdirib yuborildi.

E'tirof va ehtirom

Yozilgan asar, chizilgan kartina, namoyish etilgan spektakl, ijro etilgan kuy-qo'shiq, raqs, yaratilgan badiiy filmlarning bahosini el-yurt beradi. Qolaversa, muayyan yo'nalish yoki janrdagi asami munosib baholaydigan yetuk mutaxassislar, ya'ni ekspertlar bor. Teatrlashtirilgan tomosha va konsert dasturlarini namoyish etib kelayotgan Marg'ilon musiqali maqom teatri ijodiy jamoasining o'tgan yili erishgan yutuqlari salmoqli: yosh xonanda Ulug'bek Elmurodzoda o'tgan yili Prezidentimiz farmoniga muvofiq, "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandi. Shuningdek, o'tgan yili 20-25-oktabr kunlari Bishkekda o'tkazilgan "Art-Ordo" xalqaro teatr festivalida bosh rejissyor Xo'jamberdi Egamberdiyev sahnalashtirgan "Ikki qalb nolasi" spektakli "Eng yaxshi musiqali spektakl" nominatsiyasiga munosib ko'rildi.

Teatr arboblari uyushmasi tashabbusi bilan "Parkent" ijod uyida tashkil etilgan "Nigoh" ijodiy seminarida bosh rejissyor Xo'jamberdi Egamberdiyev, dramaturg Tolibjon Ro'ziyoyev qalamiga mansub "Burhoniddin Marg'inoniy" tarixiy dramasi ijodiy loyihasi yuqori baholani, birinchi beshlikdagi uchinchi o'rinni qolqib topildi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida zamonaviy teatr va sirk san'atini har tomonlama rivojlantirish, yuksak badiiy-g'oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish zarurligi qayd qilingan. Marg'ilon musiqali maqom teatri ijodiy jamoasining ham madaniy, ham ma'naviy meros — mumtoz ashula namunalari asrab-avaylash, mukammal ijrosini ta'minlash, teatr san'ati negiziga singdirib, yangicha shaklda xalqimizga taqdim etish yo'lidagi qizg'in ijodiy jarayoni e'tirofga, e'tiborga molik, albatta.